$$\frac{E_{v,T}^{(1)}}{A_{v,T}^{(1)}} = \frac{E_{v,T}^{(2)}}{A_{v,T}^{(2)}}$$


Faraz qilamizki, ajratilgan tizim, nur chiqarish qobiliyatları  $E_{v,T}^{(2)}$ ,  $E_{v,T}^{(3)}$ ... va nur yutish qibiliyatları  $A_{v,T}^{(1)}$   $A_{v,T}^{(2)}$   $A_{v,T}^{(3)}$  bo‘lgan jismlardan iborat bo‘lib ulardan biri mutlaq qora jism bo‘lsin. Natijada yuqorida keltirilgan muloxazalarga asosan quyidagi natijani yozish mumkin.

$$\frac{E_{v,T}^{(1)}}{A_{v,T}^{(1)}} = \frac{E_{v,T}^{(2)}}{A_{v,T}^{(2)}} = \frac{E_{v,T}^{(3)}}{A_{v,T}^{(3)}} = \frac{\varepsilon_{v,T}}{a_{v,T}} = \varepsilon_{v,T}$$

chunki  $a_{v,T}=1$ . Yuqorida keltirilgan ifoda Krixgof qonunini ifodalaydi. Bu qonunni quyidagicha ta’riflash mumkin. Berilgan haroratda barcha jismlar uchun nur chiqarish qibiliyatini nur yutish qibiliyatiga bo‘lgan nisbati o‘zgarmas kattalik bo‘lib, bu nisbat huddi shu haroratda olingan mutlaq qora jismning nur chiqarish qibiliyatiga teng bo‘ladi.

### **Stefan-Bolsman qonuni**

Krixgof qonunidan ma’lumki jismni nur chiqarish qobiliyatining nur yutish qibiliyatiga bo‘lgan nisbati mutloq qora jismning nur chiqarish qibiliyatiga teng. Binobarin Stefan-Bolsmanlar Krixgof qonunini e’tiborga olib mutloq qora jismning nur chiqarish qibiliyatini haroratga bog‘liqligini aniqladi. Quyidagi rasmida  $T=1259$  K temperaturada mutlaq qora jismning nurlanish spektridagi energiyani taqsimlanish egrisi keltirilgan.



Bu taqsimot egri chizig‘i va absissa o‘qi bilan chegaralangan yuza 1259 K haroratda qora jismning nur chiqarish qobiliyati  $\varepsilon_t$  ni bildiradi. Energiyaning taqsimlanish egrisiga asosan berilgan  $T=1259$  K haroratda mutlaq qora jism nurlanishining maksimumi  $\lambda = 2,4 \cdot 10^{-6}$  m ya’ni infraqizil nurlanish to‘lqin uzunligiga to‘qli keladi. Mutlaq qora jismning to‘liq nur chiqarish qibiliyatining haroratga bog‘liqligi quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘lgan Stefan-Bolsman qonuni bilan ifodalanadi.

$$\varepsilon_T = \int_0^\infty \varepsilon_{v,T} \cdot d\nu = \sigma \cdot T^4$$

YA'ni mutlaq qora jismning nur chiqarish qobiliyati uning mutlaq haroratining to'rtinchi darajasiga mutanosibdir. (8) tenglikdagi  $\delta$  Stefan-Bolsman doimiysi bo'lib uning qiymati quyidagiga teng:  $\delta = 5,67 \cdot 10^{-8} \text{ vt}/(\text{m}^2 \text{ grad})$ .

### Vinning siljish qonuni


Mutlaq qora jismning nurlanishini harakterlovchi qonunni nazariy ravishda asoslab  $\varepsilon$  ni chastota va temperaturaga bog'liqligi  $\varepsilon = f(v, T)$  ko'rinishga ega ekanligini Vin ko'rsatdi. Vinga asosan mutlaq qora jismning nur chiqarish qobiliyati quyidagi formula bilan ifodalanadi.

$$\varepsilon_{v,T} = c v^3 f\left(\frac{v}{T}\right)$$

yoki

$$\varepsilon_{\lambda,T} = (c^5 / \lambda^5) f(c / \lambda T)$$

$\varepsilon_\lambda$  ni to'lqin uzunligiga bog'liqlik grafigi quyidagi rasmda keltirilgan. Mutloq qora jismning nur chiqarish qobiliyati harorat oshishi bilan ortib boradi.




Nurlanish energiyasining maksimumiga to'g'ri keladigan to'lqin uzunligi esa kamayib boradi. Mutlaq qora jismning nur chiqarish qobiliyatini ifodalovchi formulaga asosan ko'rsatish mumkinki energiya maksimumining vaziyati quyidagi shartga asosan aniqlanadi.

$$T \cdot \lambda_{max} = b$$

Bu ifodaga Vinning siljish qonuni deyiladi. Bunda  $b = 0,2897 \cdot 10^{-2} \text{ m.grad}$ . Vin qonunini quyidagi ko'rinishda ta'riflash mumkin. Mutlaq qora jismning nurlanish energiyasining maksimumiga to'g'ri keladigan to'lqin uzunligi uning mutlaq haroratiga teskari mutanosibdir.

Issiqlik nurlanishi qonunlariga asoslanib nur chiqaruvchi jismning haroratini aniqlash mumkin. Bunda aniq bitta to'lqin uzunligi uchun ma'lum spektral intervaldagi cho'g'langan jismning nurlanishi mutloq qora jismning nurlanishi bilan solishtiriladi. Bunday solishtirish ipi yo'qoladigan va quyidagicha tuzilishga ega bo'lgan pirometr Yordamida amalga oshiriladi.



Obyektivning fokusida L elektr lampkasi joylashtiriladi. Tekshiriladigan manba sirti obyektiv Yordamida pirometrdagi lampochka ipi tekisligiga proyeksiyalantiriladi. Okulyar bir vaqtning o'zida piometr lampochkasi ipining o'rta qismi va tekshiriladigan manba sirtining tasvirini kuzatishga imkon beradi.

Lampkani qizdirish uchun kerak bo'ladigan elektr toki A. ampermetr Yordamida hisoblanadi. Haroratni o'lchashda piometr lampkasidagi ipning rangi cho'g'langan manba rangiga tenglashguncha tokning qiymati boshqariladi. Bunda haroratni aniqlash uchun A-ampermetr dastlabki darajalashga ega bo'lishi kerak. Bunda agar jism mutlaq qora bo'lsa harorat haqiqiy bo'ladi, chunki darajalash ana shunday jism Yordamida amalga oshiriladi. Agar jism mutlaq qora bo'lmasa u holda aniqlangan harorat ravshanlik harorati bo'ladi.

### Maks Plankning kvantlar haqidagi gipotezasi

Yuqorida qaralgan issiqlik nurlanishning barcha qonunlari termodinamikaga asoslangan. Bundan farqli hamda Reley birinchi marta issiqlik nurlanish xodisalarini tushintirishda statistik fizika usullarini qo'lladi. Releyga asosan  $\nu, \nu + d\nu$  chastota oralig'ida joylashadigan xususiy chastotalar soni, muvozanatlari elektromagnit nurlanish joylashgan bo'shliqning xajmining kvadratiga, chastotaning kvadratiga va oraliq kengligiga to'g'ri mutonosibdir, ya'ni  $dN \sim V\nu^2 d\nu$ . Muvozanatlari tizimda energiyani erkinlik darajalari bo'yicha tekis taqsimlanish qonunidan foydalanib va har bir tebranma erkinlik darajasiga to'g'ri keladigan energiya miqdori  $kT$  ga tengligidan foydalanib, Reley jismning nur chiqarish qobiliyatini uchun quyidagi ifodani aniqladi.

$$\varepsilon(\nu, T) \sim \nu^2 KT \quad (11. a)$$

bunda K- Bolsman doimiysi. Jins Reley g'oyasidan foydalanib (11.a) ifodaning aniq ko'rinishini topamiz.

$$E(\nu, T) = \frac{2\pi\nu^2}{c^2} KT \quad (11. b)$$

Bu ifoda chastotaning past sohasidagina to‘g‘ri natijalarni beradi. Barcha chastota aniqliklarida nur chiqarsh qobilyatini temperaturaga bog‘liqligini aniqlash uchun Plankning kvantlar haqidagi gipotezasi va formulasi o‘rinli bo‘ladi.

Yuqorida bayon etilgan Stefan-Bolsman va Vin qonunlari mutlaq qora jism nurlanishini hususiy qonunlaridir, chunki ular turli haroratlarda nurlanish energiyasini to‘lqin uzunliklar bo‘yicha taqsimlanishini ifodalamaydi. Bunday masalani hal etish uchun M. Plank fizikada nurlanish istalgan chastota va energiyaga ega bo‘lgan uzluksiz elektromagnit to‘lqindan iborat degan tushunchani rad etdi. M. Plank gipotezasiga asosan biror aniq nur chiqaruvchi tizim uchun energiyasi quyidagi tenglik bilan aniqlanadigan elektromagnit to‘lqini alohida porsiyalarda chiqarish va tarqalishi mumkin.

$$E_0 = h\nu \quad (12.a)$$

bunda  $h = 6,625 \cdot 10^{-34}$  J.s Plank doimiysi,  $\nu$ -chastota.

Nurlanishni bu bo‘laklariga Yorug‘lik kvantlari deyiladi.

Ma’lumki mumtoz fizikada ixtiYoriy tizim energiyasi (garmonik ossillyator ham) uzluksiz ravishda o‘zgarishi mumkin). Plank tomonidan olg‘a surilgan gipotezaga asosan ossillyatorning energiyasi faqat diskret qiymatlarni qabul qilishi mumkin.

$$E_n = nE_0$$

bunda  $n=1,2,3,\dots$ .  $E_0$ -kvantning eng kichik bo‘lagining energiyasi.

Energiyaning nurlanishi yoki yutishi ossillyatorning bir diskret holatdan ikkinchi holatga o‘tishi natijasida hosil bo‘ladi.

Bolsman taqsimotiga asosan ko‘rsatish mumkinki energetik sathlarni diskret joylashishida ossillyatorning o‘rtacha energiyasi

$$\bar{E} = \frac{E_0}{(e^{E_0/kT} - 1)}$$

bo‘ladi. Bu holda mutloq qora jismni nur chiqarish qobilyati uchun quyidagi ifoda hosil bo‘ladi.

$$\varepsilon(\nu T) = \frac{2\pi\nu^2}{c^2} \bar{E} = \frac{2\pi\nu^2}{c^2} \cdot \frac{E_0}{e^{E_0/kT} - 1}$$

Agar (10.11a) ni hisobga olsak u holda (10.11g) ga asosan quyidagi tenglikni hosil qilamiz.

$$\varepsilon(\nu, T) = \frac{2\pi\nu^2}{c^2} \cdot \frac{h\nu}{e^{h\nu/kT} - 1}.$$

Bu formulaga Plank formulasi deyiladi. Plank formulasidan quyidagi hulosalar kelib chiqadi.

- Garmonik ossillyator energyasining elementar bo‘lagi tebranish chastotasiga to‘g‘ri mutanosibdir. Elektronning atomdagi tebranishini garmonik ossillyator deb qarash mumkin.
- Bir xolatdan ikkinchi xolatga utish ossillyator tomonidan nurlantirilgan yoki yutilgan kuantning energiyasi nurlantirilgan yoki yutilgan Yorug‘lik chastotasiga to‘g‘ri mutanosibdir.

## **2-MAVZU: YORUG‘LIK FOTONLARINING URLANISHI VA YUTILISHI**

Atom energiyasi darajalari atom Yadrosi va boshqa elektronlar ishtirokidagi elektronlarning potensial energiyalari, shuningdek, orbital va spin burchak momentlari ishtirokidagi o‘zaro ta’sirlar bilan belgilanadi, ular odatda zarYadlarni o‘z ichiga olgandan ancha zaifdir. Ne, Cu va Cd kabi izolyasiyalangan atomlar va boshqalar faol lazer muhiti bo‘lib xizmat qiladi.

**Energiya sathlar.** +Ze zarYadga ega Yadrodan iborat bo‘lgan vodorodga o‘xshash atomning Kulon potensial energiyalari:

$$V(r) = -Ze^2 / 4\pi\epsilon r$$

bu erda  $Z$  – atomning tartib raqami ( $H$  uchun  $Z = 1$ ),  $e$  -elementar zarYad va  $m_0$  – elektron massasi.

$V(r)$  faqat radial koordinataning funksiyasi bo‘lganligi sababli, Laplasian sferik koordinatalarda yozilishi mumkin, buning natijasida qisman differentsial tenglama o‘zgaruvchilarni ajratish orqali uchta oddiy differentsial tenglamaga bo‘linadi. Bu xususiy qiymat muammosi uchun tayYor echimga olib keladi, bunda o‘z qiymatlari cheksiz sonli diskret energiya darajalarini o‘z ichiga oladi:

$$E_n = -\frac{M_r Z^2 e^4}{(4\pi\epsilon_0)^2 2\hbar^2} \frac{1}{n^2}, \quad n = 1, 2, 3, \dots,$$

bu erda  $M_r$  – keltrilgan massa.

Ma’lumki optik diapazondagi elektromagnit to‘lqinlarning manbai har qanday moddaning tashkil etuvchi uning atom, ion yoki molekulalaridir. Bu

zarralarni tashqi elektromagnit maydoni ta'siri ostida uyg'ongan holatga keltirish mumkin.

Uyg'ongan holatdagi atomning yashash davri  $10^{-8}$  s ga teng. Bunday holatdagi atomga tashqi ta'sir misol uchun elektromagnit maydoni ta'sir etmasa u holda uygongan holatni xarakterlovchi yukori energetik satxdan pastki energetik satixga utish uz-uzidan ya'ni tasodifiy ravishda amalga oshadi. Bunday utish natijasida xosil buladigan nurlanish jarayoniga spontan nurlanish deyiladi.

1916 yilda A.Eynshteyn jismlar nur chiqarishining kvant xarakterini tahlil qilib nurlanishni ikki turi – spontan (o'z-o'zidan) va majburiy (induksion) nurlanishlar mavjud ekanligini nazariy jixatdan asosladi. Spontan o'tish paytida uyg'ongan atomlarning yuqori energetik sathdan pastki energetik sathga o'tishi tashqi ta'sirga ya'ni elektromagnit maydon ta'siriga bog'liq bo'lmaydi, ya'ni bu holda hosil bo'ladigan nurlanish mustaqildir.

Spontan nurlanish jarayonida fotonlarning nurlanishi tartibsiz ravishda turli yo'nalishlar bo'ylab yo'nalgan bo'ladi. Agar nur chiqaruvchi zarra nur chiqargandan so'ng qaytadan  $E_n$  uyg'ongan satxga o'tkazilsa, unda 1 s vaqt davomida  $E_n$  sathdan  $E_m$  satxga o'tishlar sonining o'rtacha qiymati ( $A_{nm}$ ) quyidagicha aniqlanadi.

$$A_{nm} = \frac{1}{\tau_{nm}} = \frac{\omega_{nm}^3 \cdot P_0^2}{3hc^3} \quad (1)$$

bunda  $\tau_{nm}$  uyg'ongan holatning davomdorligini va  $R_0$  zarraning dipol momentini ifodalaydi. (1) formula bilan aniqlanadigan  $A_{nm}$  kattalik spontan nurlanish uchun vaqt birligi ichida o'tish extimolini bildiradi va unga spontan nurlanish koeffisenti deyiladi. Keltirilgan (1) tenglikda  $E_n \rightarrow E_m$  o'tishga mos keladigan Yorug'lik chastotasi  $\omega_{nm}$  bilan belgilanadi, Spontan nurlanishda vaqt birligi ichida  $E_n$  satxdan  $E_m$  satxga o'tuvchi atomlarning o'rtacha soni  $N_n$ -ga mutonosib bo'lib quyidagi tenglik bilan aniqlanadi.

$$\Delta N_{nm}^{cnohm} = A_{nm} N_n \quad (2)$$

Pastki energetik sathda bo'lgan atomlar yuqori energetik satxga ko'tarilishi uchun moddaga tushuvchi elektromagnit to'lqinni yutadi. Bunday atomlarning soni

$N_{nm}$  quyidagicha aniqlanadi.

$$\Delta N_{mn}^{\text{ion}} = B_{nm} U(\omega_{mn}) N_m \quad (3)$$

Bu formuladagi  $V_{mn}$  – Eynshteyn koeffisenti bo‘lib, atomni pastki energetik satxdan yuqori energetik sathga o‘tishini bildiradi.

Moddaga tushuvchi Yorug‘lik energiya oqimi spektral zichligini  $U(\omega_{mn})$  bilan belgilaymiz. Quyidagi tenglik bilan aniqlanadigan modda atomning tebranish chastotalaridan biri

$$\omega_{nm} = (E_n - E_m) / \hbar \quad (4)$$

bu erda  $\hbar = h / 2\pi$ ,  $h = 6,626 \cdot 10^{-34} \text{J}\cdot\text{s}$  Plank doimiysi, unga tushuvchi Yoruglik chastotasiga teng bo‘lsin, u xolda quyidagi ikki jarayon yuzaga kelishi mumkin.

1. Atomlar  $E_m$  energiya bilan xarakterlanadigan pastki energetik sathdan  $E_n$  energiya bilan xarakterlanadigan yuqori energetik sathga o‘tadi.
2. Atomlar energiyasi  $E_n$  ga teng bo‘lgan yuqori energetik satxdan energiyasi  $E_m$  ga teng bo‘lgan pastki energetik satixga majburiy ravishda o‘tadi.

Birinchi jarayonda Yorug‘likning yutilishi natijasida tushuvchi nurning intensivligi kamaYadi. Ikkinci jarayonda Yorug‘lik nurining intensivligi oshadi. Moddadan o‘tgan Yorug‘lik nurining natijaviy intensivligi bu ikkala jarayonlardan qaysi birini ustun kelishiga bog‘liq.

Uygongan atomlarga tashqi nurlanish kvanti tushgan paytda modda atomlari bu nurlanishni yutmasdan balki o‘zidan yangi nurlanish kvantini chiqaradi va bu kvantlar bir-biridan farq qilmaydi. A.Eynshteyn majburiy nurlanishni amalga oshiruvchi atomlarning o‘rtacha soni  $N_{nm}^{\text{maj}}$  quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta N_{nm}^{\text{max}} = B_{nm} U(\omega_{nm}) N_n \quad (5)$$

$$B_{nm} = \frac{8\pi^3 |D_{nm}|^2}{3h^2 g_n}$$

$$B_{nm} = \frac{8\pi^3 |D_{nm}|^2}{3h^2 g_m} \quad (6)$$

Bunda  $D_{nm}$  nur chiqaruvchi zarraning dipol momenti amplitudasidir  $D_{nm}=R_0/2$ .

Keltirilgan (6) formuladagi  $V_{mn}$  Yorug‘likni yutilishini ifodalovchi A.Eynshteyn koeffitsientidir.

Karrali satihlar uchun  $g_m B_{nm} = g_n B_{mn}$  (7) bo‘ladi.

$T \rightarrow \infty$ , da  $N_m = N_n$  va  $B_{nm} = B_{mn}$  (8) buladi.

Termodinamik muvozanat holatidagi modda uchun  $N_m V_{nm} > N_n B_{mn}$  bo‘ladi va bu paytda modda o‘ziga tushgan Yorug‘likni yutadi.

YUqorida keltirilgan (3) formulaga asosan holat energiyasini oshishi bilan energetik satihlar zichligi yoki atomlar soni  $N_n$  kamaYadi. Tushuvchi nur intensivligini oshirish uchun energetik satihlar zichligini teskarisiga o‘zgartirish kerak. Agar ana shunday shart bajarilsa atomlar to‘plami inversiyali (teskari) joylashishga ega bo‘ladi va bunday shartni amalga oshirish mumkin bo‘lgan muxitga faol muxit deyiladi.

Agar  $B_{nm}N_n > N_mB_{mn}$  bo‘lsa, u holda moddaga tushgan Yorug‘lik yutilmasdan balki majburiy nurlanish hisobiga kuchaYadi. A.Eynshteyn ko‘rsatdiki spontan va majburiy nurlanishlar koeffisientlari o‘rtasida quyidagicha bog‘lanish mavjud.

$$\frac{A_{mn}}{B_{mn}} = \frac{h\omega_{mn}^3}{\pi^2 c^3} \quad (9)$$

A.Eynshteynnning nurlanish nazariyasiga asosan atom va molekula tomonidan yutilgan Yorug‘likning harakterlovchi yutilish koeffisentini aniqlash mumkin. Intensivligi  $I$  ga teng bo‘lgan Yorug‘lik parallel dasta chastotasi  $v$  va  $v + dv$  intervalda o‘zgaruvchi nurlanishni yutuvchi atomlar qatlidan o‘tganda, yutilish jarayoni bu oqimni kuchsizlantiradi, majburiy nurlanish jarayoni esa bu oqimni kuchaytiradi.

Bu paytda spontan nurlanishni hisobga olmasa ham bo‘ladi, chunki bu holda fotonlar asosan turli yo‘nalishlar bo‘ylab uchib ularning bir qismi tushuvchi birlamchi nurlanish yo‘nalishida uchadi.

Faraz qilamizki xajm birligida  $E_m$  energetik satx bilan xarakterlanadigan, chastotalari  $v$  va  $v + dv$  bo‘lgan fotonlarni yutish qobililiga ega bo‘lgan atomlar soni  $\delta N_m$  ga teng bo‘lsin.

CHastotalari xuddi shunday bo‘lgan fotonlarni nurlantiruvchi va  $E_n$  energetik satx bilan xarakterlanuvchi atomlar soni  $\delta N_n$  ga teng bo‘lsin. Bu holda dx qatlamni o‘tish natijasida fotonlar bog‘laming kuchsizlanishi quyidagiga teng

bo‘ladi.

$$(dI_0\delta\nu) = h\nu_0 B_{mn} I_\nu \delta N_m dx - h\nu_0 B_{nm} I_\nu \cdot \delta N_n dx \quad (10)$$

Bu tenglikni ikkala tomonini  $I_\nu dx$  ga teng bo‘lib va  $-\frac{1}{I_0} \frac{dI_0}{dx} = \alpha_\nu$  ekanligini hisobga

olib quyidagi natijani hosil qilamiz

$$\alpha_\nu \delta\nu = h\nu_0 (B_{mn} \delta N_m - B_{nm} \delta N_n) \quad (11)$$

Butun spektral chiziq bo‘yicha yutilishni aniqlash uchun (11) ifodani  $\delta\nu$  bo‘yicha integrallash kerak.

$$\int_\nu \alpha_\nu \delta\nu = h\nu_0 (B_{nm} N_m - B_{mn} N_n) \quad (12)$$

$\int_\nu \alpha_\nu \delta\nu = \alpha_0 \cdot \Delta\nu$  (13) deb qabul qilamiz, bunda  $\alpha_0$  spektral chiziq o‘rtasidagi yutilish koeffisiyenti,  $\Delta\nu$  spektral chiziqning effektiv kengligi. Natijada formulaga ega bo‘lamiz, ya’ni

$$\alpha_0 = \frac{h\nu_0}{\Delta\nu} (B_{mn} N_m - B_{nm} N_n) \quad (14)$$

bo‘ladi.

Agar (14) tenglikni hisobga olsak va  $B_{mn} N_m$  ni qavsdan chiqarsak  $\alpha_0$  uchun quyidagi ifodani hosil qilamiz.

$$\alpha_0 = \frac{h\nu_0}{\Delta\nu} B_{mn} N_m (1 - \frac{g_m N_n}{g_n N_m}) \quad (15)$$

Odatda majburiy nurlanish spontan nurlanishdan ko‘p martaba kichik bo‘lganligi uchun spektrning optik diapozonida kuzatilmaydi.

1939 yilda rus olimi V.A.Fabrikant o‘zining doktorlik dissertasiyasida yutilish koeffisiyenti manfiy ( $\alpha_0 < 0$ ) bulgan muhitlarni xosil qilish mumkinligini ko‘rsatdi. Buning uchun muxitda quyidagi shartni  $g_m N_n > g_n N_m$  amalga oshirish mumkin bo‘lgan sharoit yaratish kerak degan g‘oyani ilgari surdi. Agar bu shart bajarilsa manfiy yutilishga ega bo‘lgan muxitdan  $\nu_0$  – chastotali Yorug‘lik o‘tganda uning intensivligi quyidagi Buger – Lambert qonuniga asosan oshadi.

$$I_\infty = I_0 \exp(\alpha_0 \cdot d) \quad (16)$$

$$\text{Ko'rish mumkinki, (16) ga asosan } \frac{g_n}{g_m} \prec \frac{N_n}{N_m} \quad (17)$$

$N_m$  va  $N_n$  ga mos keluvchi energetik sathlarning inversli joylashishini quyidagi Bolsman formulasiga asosan aniqlash mumkin.

$$N_m = N_o g_m e^{-\frac{E_m}{kT}} \quad (18)$$

$$N_n = N_o g_n e^{-\frac{E_n}{kT}} \quad (19)$$

$$\frac{N_n}{N_m} = \frac{g_n}{g_m} \cdot e^{-\frac{E_n - E_m}{kT}} \quad (20)$$

Agar inversli joylashish mavjud bo'lsa ( $E_n - E_m > 0$ ) va  $N_n / N_m > 1$  bo'lib moddadan o'tgan Yorug'lik kuchaYadi.

Inversli joylashishni amalga oshirish va majburiy nurlanishni hosil qilish mumkin bo'lgandan so'ng lazerlar ishlab chiqarila boshlandi.

### 3-MAVZU: OPTIK KVANT GENERATORLARI

Dastasi ingichka bo'lib kuchli quvvatga ega bo'lgan kogerent va monoxramatik Yorug'lik nurlarini hosil qiladigan va nurlanishni kuchaytiradigan qurilmalarga optik kvant generatorlari deyiladi. Mikroto'lqinli diapazonidagi elektromagnit to'lqinlarni majburiy nurlanish hisobiga kuchaytirish mumkinligini 1953 yil rus olimlari A.M.Proxorov, N.G.Basov va amerikalik olim CH.Tauns ko'rsatdi.

Santimetrali elektoromagnit to'lqinlar diapazonida ishlaydigan ana shunday qurilmalarga mazerlar deb nom berildi.


Mazer so'zi quyidagi inglizcha so'zlarning, Microwave Amplification by Stimulated Emission of Radiation bosh harflaridan olingan bo'lib, mikrotulkin nurlanishni radiasiya Yordamida stimulyasiya qilish bilan kuchaytirish degan ma'noni bildiradi.

Ko'zga ko'rindigan va infraqizil nurlanish oblastida ishlaydigan to'lqin uzunligi 0,38 dan 3 mkm gacha yoki chastotalari  $10^{14} - 10^{15}$  1\s chegarada o'zgaradigan optik kvant generatorlariga lazerlar deyiladi.

1960 yilda Meynman optikaviy diapazonda ishlovchi ana shunday asbob yaratdi. Bu asbobga lazer deb nom berildi va bu nom quyidagi inglizcha Light Amplification by Stimulated Emission of Radiation so‘zlarning bosh harflaridan olingan bo‘lib Yorug‘lik nurlanishini radiasiya Yordamida stimulyasiya qilish bilan kuchaytirish degan ma’noga ega.

YOqut lazerida ishlovchi faol modda sifatida yoqut olinadi. Lazerlarda ishlatiladigan yoqut och qizil ranga ega va bir o‘qli kristal bo‘lib, unda ikkilanib sinish natijasida hosil bo‘ladigan oddiy (O) va oddiymas (N) nurlarning sindirish ko‘rsatgichi Yorug‘lik to‘lqin uzunligi  $\lambda = 656$  nm bo‘lganda  $n_0 = 1,7653$  va  $n_N = 1,7573$  ga tengdir. YOqutning tarkibi alyuminiy oksidi ( $Al_2O_3$ ) dan iborat bo‘lib unga 0,05 foiz xrom oksidi ( $Sr_2O_3$ ) aralashtirilgan bo‘ladi. YOqut odatda silindr shakliga ega, bo‘lib uning diametri  $0,4 \cdot 10^{-2}$  m dan  $2 \cdot 10^{-2}$  m gacha va uzunligi  $(3-20) \cdot 10^{-2}$  m gacha bo‘ladi. Bu silindirning ikkala uchlari yuqori aniqlikda ishlov berilgan yassi ko‘zgularga o‘xshaydi. YOqut lazeri impuls rejimida ishlaydi va to‘lqin uzunligi  $\lambda = 694,3$  nm ga teng bo‘lgan nur chiqaradi. Agar yoqut silindirining optik o‘qi uning geometrik o‘qi bilan mos tushmasa u holda yoqut lazerining nurlanishi qutublangan bo‘ladi.

Qutblangan nurni hosil bo‘lishiga sabab O nurda to‘lqin normali va bu nurni yo‘nalishlari o‘zaro mos tushadi, N nurda esa bunday mos tushishlik kuzatilmaydi. Bu silindirning bir uchi qalin kumush qatlami bilan qoplangan bo‘lib, ikkinchi uchi o‘ziga tushgan Yorug‘lik nurini 8 foizini o‘tkazadigan kumush qatlami bilan qoplangan bo‘ladi. Xrom ionlarining energetik sathlar ko‘rinishi quyidagi 1-rasmida keltirilgan.



## 1-rasm

Energiyasi etarli bo‘lgan va to‘lqin uzunligi  $\lambda = 560$  nm ga teng bo‘lgan kuchli Yorug‘likni chiqaruvchi spiral shaklidagi ksenon lampa Yordamida xrom ionlari ( $\text{Cr}^{+++}$ ) uygongan holatga keltiriladi. Bu ionlarning uyg‘ongan holatga keltirish uchun zarur bo‘lgan energiyaga damlash energiyasi deyiladi.

Damlash energiyasi hisobiga xrom ionlarining uyg‘onishi 1 rasmda  $\text{W}_{13}$  strelka bilan ko‘rsatilgan. YUqorida 3-bilan belgilangan energetik sathlarning yashash davri juda qisqa ( $10^{-8}$  s). Ana shu davr mobaynida ba’zi xrom ionlari (umumiylionlar sonining taqriban 1\200 qismi) spontan ravishda 1-energetik satihga o‘tadi. Ionlarning ana shunday o‘tishi  $\text{A}_{31}$  strelka bilan ko‘rsatilgan. Lekin ionlarning ko‘pchilik qismi 2-energetik sathga ya’ni metastabil sathga o‘tadi.

YAshash davri katta (bir necha daqiqa) bo‘lgan energetik sathlarga metastabil sathlar deyiladi. Bunday o‘tish ehtimolini  $\text{S}_{32}$  strelka bilan ko‘rsatilgan. Bu sathda ionlarning yashash davri  $\sim 10^{-3}$  s teng.


Agar damlash energiyasi etarli bo‘lsa 2-energetik satxdagi xrom ionlarining soni 1-energetik sathlardagi xrom ionlarining sonidan oshib ketadi. Metastabil holatdan asosiy holatga spontan ravishda o‘tish  $\text{A}_{21}$  strelka bilan ko‘rsatilgan. Bu holda hosil bo‘lgan faton qo‘shti iondagi fatonni nurlanishi olib keladi, ya’ni majburiy nurlanish hosil bo‘ladi. Metastabil holatdan asosiy holatga majburiy ravishda o‘tish xrom ioni sathlar sxemasida  $\text{W}_{21}$  strelka bilan ko‘rsatilgan. Bu ikkala foton yoqut bo‘yicha chopib xrom ionlarining metastabil holatdan asosiy holatga ya’ni ikkita o‘tishni induksiyalaydi, natijada fotonlar soni ikki marta oshadi. Bu jarayon davom etib fotonlar soni avval 8 ga keyin 16, 32, 64 va x.k. gacha oshadi.

Bunday nurlanishni yoqutni uchlaridan ko‘p martaba qaytishi natijasida majburiy nurlanish kuchaYadi va bunday nurlanish natijalovchi nurlanish amplitudasining uzlusiz ravishda oshishiga olib keladi.

Fotonning o‘tish yo‘li arifmetik progressiya bilan, nurlanish quvvati esa geometrik progressiya bo‘yicha oshadi. YOkut silindirning ikkala uchlarida hosil qilingan yassi kuzgularga rezonator deyiladi.

**Geliy – neon lazeri.** Birinchi gazli geliy-neon lazeri 1960 yilda Javan, Bennet va Erriot tomonidan yaratildi. Geliy-neon lazerining tuzilishi quyidagi 2-rasmda ko‘rsatilgan.


Bu lazer uzunligi bir necha unlab santimetrlardan 1,5~ 2 metrgacha bo‘lgan va ichida gaz razrYadi amalga oshadigan shisha naydan iborat. RazYad nay bosimi 1 mm. simob ustuning bosimiga teng bo‘lgan neon gazlarining aralashmasi bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. SHisha nay oxirlari nay o‘qi bilan Bryuster burchagi hosil qiladigan qilib joylashtirilgan va shisha yoki kvarsdan yasalgan  $P_1$  va  $P_2$  yassi kuzgular bilan mahkamlanadi.



2-rasm

Ko‘zgularni ana shunday joylashtirish natijasida elektr vektori nurning tushish tekisligiga parallel ravishda tebranadigan chiziqli qutblangan lazer nuri hosil bo‘ladi. K<sub>1</sub> va K<sub>2</sub> kuzgular sferik shaklga ega bo‘lib ko‘p qatlamlili dielektrik bilan qoplangan bo‘ladi. Bu kuzgulardan chiqadigan nurlanishini taqriban ikki foizini tashkil etadi. Naydagи razrYad toki bir necha o‘nlab milliamperlarni tashkil etadi. Lazer uzlusiz va impulsli rejimlarda ishlaydi. Bu lazer to‘lqin uzunligi  $\lambda_1 = 632,8$  nm teng qizil,  $\lambda_2 = 1,150$  mkm va  $\lambda_3 = 3,390$  mkm ga teng bo‘lgan infraqizil nurlarni chiqarish mumkin. Endi bu lazerda majburiy nurlanish hisobiga hosil bo‘ladigan va kuchaygan nurlanishni yuzaga kelishi bilan tanishamiz.

Neon atomlarining inversli joylashishi quyidagicha amalga oshadi (3- rasmga qarang).



### 3-rasm

Gaz razrYadli plazma elektronlari bilan to‘qnashishi natijasida neon atomlari uygongan holatga o‘tadi. RazrYadning ma’lum rejimida bu jarayon  $E_1^{Ne}$  va  $E_2^{Ne}$  energetik sathlarni invers joylashishiga olib keladi. Lekin  $E_1^{Ne}$  va  $E_3^{Ne}$ ,  $E_4^{Ne}$  va  $E_5^{Ne}$  energetik sathlarda invers joylashish yuzaga kelmaydi. Qisqa muddatli yashashga ega bo‘lgan  $E_1^{Ne}$  sathdan pastroqda joylashgan  $E_5^{Ne}$  energetik sath invers joylashishni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.  $E_5^{Ne}$  sathni inversli joylashishi katta bo‘lib buning hisobiga tez bo‘shaladigan  $E_1^{Ne}$  sathni to‘ldirilishi yuzaga keladi, bunda  $E_1^{Ne}$  va  $E_3^{Ne}$  satxlar o‘rtasida inversli joylashish yuzaga kelmaydi. Geliy gazining aralashishi natijasida quyidagi hodisa kuzatiladi. Geliy atomining sathlari o‘rtasida lazerni ishlashi uchun  $E_0^{Ne}$  sathdan tashqari energiyalarini 19,82 va 20,61 eV ga teng bo‘lgan  $E_2^{Ne}$  va  $E_3^{-Ne}$  metastabil sathlarni ahamiyati katta. Bu sathlarda asosiy  $E_2^{Ne}$  sathga spontan ravishda o‘tish taqiqlangan ya’ni bunday o‘tish ehtimoli kichikdir. SHuning uchun  $E_2^{Ne}$  va  $E_3^{-Ne}$  sathlarda atomlarni yashash davri juda katta. Elektron zarbalari natijasida bu sathlarda juda ko‘p geliy atomlari to‘planadi. Geliyning  $E_2^{Ne}$  va  $E_3^{Ne}$  sathlari neonning  $E_1^{Ne}$  va  $E_3^{Ne}$  sathlari bilan deyarli mos tushadi.

Binobarin uygongan geliy atomlari uygonmagan neon atomlariga o‘z energiyalarini rezonansli uzatishi asosiy holatda nur chiqarmasdan sodir bo‘ladi. Natijada  $E_1^{Ne}$  va  $E_3^{Ne}$  sathlarda neon atomlarining konsentrasiyasi tezda oshadi va  $E_1^{Ne}$ ,  $E_3^{Ne}$  sathlarga nisbatan inversli joylashish yuzaga keladi va  $E_2^{Ne}$  bilan  $E_1^{Ne}$  sathlar o‘rtasidagi inversli joylashish bir necha marta oshadi.

Biz qattiq jismlar lazeri va gaz lazerining ishlash prinsipi bilan tanishib

chiqdik. Gazli lazerlar ichida faol moddasi korbonat angdriddan ( $\text{SO}_2$ ) dan iborat bo‘lgan lazer quvvatlidir. 1963 yilda yarim o‘tkazgichli lazerlar kashf etildi.

Bundan tashqari faol moddasi suyuqlikdan iborat bo‘lgan lazerlar ham mavjud.

Belorus olimi B.I.Stepanov hamkasblari bilan bирgalikda faol moddasi bo‘yoq radamin 6J ning eritmasidan iborat bo‘lgan lazerni kashf etdi. Lazer nurlanishi quyidagi xossalarga ega.

1. Lazer nurlanishi vaqtiy kogerentlikka ega, ya’ni lazer nurining elektr maydon kuchlanganlik vektorining kattaligi tebranish yo‘nalishi vaqtga nisbatan turg‘un bo‘ladi.
2. Lazer nurlanishi yuqori monoxromatiklikka ega, ya’ni faol modda atom yoki molekulalari bir-biri bilan kelishilgan holda nur chiqaradi, natijada bu nurlanish bitta aniq rangli monoxromatik Yorug‘lik sifatida hosil bo‘ladi.
3. Lazerlarda hosil bo‘ladigan majburiy nurlanishning xarakterli hususiyati shundan iboratki, uning chastotasi, fazasi qutblanishi va tarqalish yo‘nalishi unga tushuvchi tashqi nurlanishni harakterlaydigan shunday kattaliklar bilan mos tushadi.

#### **4-MAVZU: YORUG‘LIKNING SOCHILISHI**

Tajriba ko‘satadiki, bir jinsli (sindirish ko‘satgichi barcha nuqtalarida bir xil bo‘lgan) muhitda Yorug‘lik to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tarqaladi. Bunday muhitlardan tashqari bir jinslimas muhitlar ham mavjud. Optik bir jinslimasliklarni hosil bo‘lishiga sabablar juda ko‘p. Masalan: gaz holatidagi moddada muallaq ravishda turadigan qattiq zarralar (tutun), atmosferadagi suv tomchilari (tuman), suyuqlikda muallaq ravishda turadigan qattiq zarralar (suspensiya) va h.k. lar bir jinsli bo‘lmagan muhitni hosil bo‘lishiga olib keladi va bunday muhitlarga xira muhitlar deyiladi.

Muhitda optik bir jinslimaslikning mavjud bo‘lishi Yorug‘likning sochilishiga olib keladi. Xira muhitlarda Yorug‘likning sochilishini ilk bor 1869 yilda Tindal kuzatdi, ko‘p hollarda bu hodisaga Tindal hodisasi ham deyiladi. Bunday muhit zarralarining o‘lchami d bilan tushuvchi Yorug‘lik to‘lqin uzunligi λ o‘rtasida munosabat quyidagicha bo‘ladi:

$$d=(0,1 \div 0,2) \lambda, \text{ ya'ni } d < \lambda$$

Bu hodisani tekshirib Tindal va uning safdoshlari quyidagi xulosaga keldilar:

1. Sochilgan Yorug‘lik ko‘k-havorang rangga ega.
2. Sochilish burchagi  $\varphi=90^0$  ga teng bo‘lganda (1-rasm) sochilgan Yorug‘lik deyarli to‘la chiziqli qutblangan bo‘ladi.
1. Sochilgan Yorug‘lik indikatrissasi, ya’ni  $\varphi$  burchak ostida sochilgan Yorug‘lik intensivligi (1-rasm) tushuvchi nurga va unga tik bo‘lgan yo’nalishlarga nisbatan simmetrikdir.

$$I_\varphi = I_{\pi/2} (1 + \cos^2 \varphi) \dots \quad (1)$$

Yorug‘likning sochilish nazariyasini 1889 yilda Reley yaratgan. Reley nazariyasiga asosan o‘lchami Yorug‘lik to‘lqini uzunligidan kichik bo‘lgan zarrachalardan iborat muhitga Yorug‘lik nuri tushsa, u holda ana shu zarrachalar tomonidan sochilgan Yorug‘likning intensivligi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$I = I_0 9\pi^2 \varepsilon_0 N^2 V^2 / \lambda^4 r^2 [(\varepsilon_0 - \varepsilon) / (\varepsilon_0 + \varepsilon)] (1 + \cos^2 \varphi) \quad (2)$$

Bu formulaga Reley formulasi deyiladi.

Bu erda,  $I_0$  – moddaga tushuvchi Yorug‘likning intensivligi,

$N$  – hajm birligidagi zarrachalar soni,

$\varepsilon$  - zarrachaning dielektrik kirituchanligi,

$r$  – Yorug‘lik sochuvchi markazdan kuzatish nuqtasigacha bo‘lgan masofa,


$V$  – zarrachaning hajmi,

$\varphi$  - Yorug‘likning sochilish burchagi,

$\varepsilon_0$  - muhitning dielektrik kirituchanligi,

$\lambda$  - moddaga tushuvchi Yorug‘lik to‘lqin uzunligi.

Yorug‘likning sochilish hodisasini quyidagi tajribada ko‘rish mumkin. Faraz qilamizki, biror bir idishga toza suv solingan bo‘lsin va tushuvchi Yorug‘likning intensivligi  $I_0$  bo‘lsin. Agar tushuvchi Yorug‘likka nisbatan  $\varphi=90^0$  burchak ostida qarasak Yorug‘likning sochilishini ko‘ramiz. Sochilmagan Yorug‘lik esa esa idishdan to‘g‘ri o‘tib ketadi.



Agar idishdagi suvga biror tomchi atir yoki sut tomizib, tushuvchi nurga nisbatan  $90^0$  burchak ostida qarasak, Yorug‘likning hamma tomonga sochilganini ko‘ramiz. Sochilgan Yorug‘lik havorang bo‘lib ko‘rinadi, bunday bo‘lishiga sabab Reley formulasi (2) ga asosan, sochilgan Yorug‘lik intensivligi to‘lqin uzunligining to‘rtinchidagi darajasiga teskari mutanosib ekanlidir, ya’ni

$$I \sim 1/\lambda^4 \quad (3)$$

SHu qonun asosida Osmon gumbazining ko‘k rangga ega bo‘lishi Quyoshning chiqishi va botishi oldidan ko‘rinadigan ufqning rangi tushuntiriladi.

Yorug‘likning atmosferada sochilish tufayli Osmon havo rang bo‘lib ko‘rinadi. Quyosh gorizontga yaqinlashsa bizga atmosferaning qalin qatlamidan, o‘tib sochilgan Yorug‘lik kuchsizlangan holda etib keladi. Ya’ni, bu holda sochilgan Yorug‘likning ma’lum bir qismi etib keladi. Natijada Қuyoshning chiqishi va botishi oldidan Ufqning rangi qizil-to‘q sariq bo‘ladi. YUqoridagi tajribadan ko‘rinadiki, Yorug‘likning sochilishiga asosiy sabab Reley ko‘rsatganidek muhitning bir jinsliligining buzilishidir. Bunday buzilish bizning holda toza suvga bir tomchi atir yoki sut tomchisini tomizganimizda yuzaga keladi.

Reley ko‘rsatdiki, Yorug‘likning sochilishiga asosiy sabab havodagi chang zarrachalari emas, balki havo molekulalarining o‘zidir. Haqiqatda esa bir jinsli muhit ham Yorug‘likni sochishi mumkin. Bir jinsli muhitda Yorug‘likning sochilishini rus olimi L.I. Mandelshtam ko‘rsatdi. Bu hodisani zichlik fluktuasiysi natijasida yuzaga kelishini nazariy ravishda polyak olimi M.Smoluxovskiy isbotlab berdi. Agar Yorug‘lik molekulalardan iborat bo‘lgan gaz yoki suyuqlikda sochilsa, bunday sochilishga Yorug‘likning molekulyar sochilishi deyiladi. Yorug‘lik sochilishini kuzatish uchun Yorug‘lik sochuvchi muhit rangsiz-shaffof bo‘lishi

kerak. Yorug‘lik sochilishini statistik nazariyasiga asosan tushuvchi nuring elektr maydon kuchlanganligi E ta’siri ostida muhit molekulalari qutblanadi va dipol momentga ega bo‘ladi. Hajm birligining dipol momenti

$$P = \frac{\epsilon - 1}{4\pi} E = \frac{\epsilon_0 - 1}{4\pi} E + \frac{\Delta\epsilon - 1}{4\pi} E \dots \quad (4)$$

Bu tenglikda  $\epsilon$  muhitning dilektrik kirituvchanlik,  $\Delta\epsilon$  uning fluktuasiyasi. Dielektr kirituvchanlik moddaning zichligiga bog‘liq, binobarin zichlik fluktuasiyasi dielektrik kirituvchanlik fluktuasiyasi olib keladi, ya’ni dielektrik kirituvchanlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\epsilon = \epsilon_0 + \Delta\epsilon \quad (5)$$

bunda  $\epsilon_0$  dielektrik kirituvchanlikning o‘rtacha qiymati,  $\Delta\epsilon$  - o‘rtacha qiymatdan chetlashish – fluktuasiya.

Dielektrik kirituvchanlik fluktuasiyasi zichlik fluktuasiyasi ( $\Delta\rho$ ) natijasida yuzaga keladi. Yorug‘likning sochilishiga sabab (5) formulaning ikkinchi qismi mavjudlidigidir. Agar dipolning o‘lchami tushuvchi nur to‘lqin uzunligiga nisbatan juda kichik bo‘lsa, u holda dipolli sochilish bilan chegaralanish mumkin. Bu holda sochilgan Yorug‘lik elektr maydon kuchlanganligi

$$E = \frac{\omega^2}{c^2 \cdot r} P \sin\theta \dots \quad (6)$$

bo‘ladi, bunda P – dipol momenti,  $\omega$  – Yorug‘likning aylanma chastotasi,  $\theta$  - dipol o‘qi bilan r – radius vektor o‘rtasidagi burchak, c – Yorug‘likning bo‘shliqdagi tezligi. Moddaning kichik hajm elementi (v) tomonidan sochilgan Yorug‘lik elektr maydon kuchlanganligi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$E = \frac{\omega^2}{c^2 \cdot r} P \sin\theta = \frac{\omega^2}{c^2 \cdot r} \cdot \frac{\Delta\epsilon}{4\pi} v \sin\theta \quad (7)$$

Sochilgan Yorug‘lik intensivligi quyidagiga teng bo‘ladi.

$$I_v = \frac{c \cdot n}{4\pi} |\overline{E}_0|^2 = I_0 \frac{\pi^2 v^2}{r^2 \lambda^4} \cdot (\Delta\epsilon)^2 \sin^2 \theta \quad (7)$$

bu erda

$$I_0 = \frac{c \cdot n}{4\pi} |\overline{E}_0|^2 \quad (9)$$

Agar Yorug‘lik sochuvchi V hajm bir necha (N) elementar hajmlardan (V) iborat bo‘lsa, u holda

$$I = N \cdot I_v = I_0 \frac{\pi^2 v V}{r^2 \lambda^4} \cdot (\Delta\epsilon)^2 \sin^2 \theta \quad (10)$$

Ikkinchi tomonidan gazlar uchun

$$\epsilon - 1 = 4\pi N \alpha = 4\pi \frac{N}{V} \alpha \dots \quad (11)$$

$\alpha$  - qutblanuvchanlik koeffisienti va

$$\Delta\epsilon = 4\pi N \alpha \frac{\Delta N}{V} = (\epsilon - 1) \frac{\Delta N}{N} \dots \quad (12)$$

$$I_o = I_o \frac{4\pi^2 v}{r^2 \lambda^4} (\epsilon - 1)^2 \frac{\Delta N^2}{N^2} \sin^2 \theta \dots \quad (13)$$

Bu formulada V – hajmdagi molekulalar soni  $N=N_1V$ : Ideal gaz uchun

$$(\overline{\Delta N})^2 = N \text{ bo'lib} \quad I_o = I_o \frac{4\pi^2}{r^2 \lambda^4} (n-1)^2 \frac{v}{N_1} \sin \theta \dots \quad (14)$$

Bu formulaga gazlar uchun Reley formulasi deyiladi.

Juda yuqori haroratlarda, ya’ni moddaning kritik haroratiga yaqinlashganda Yorug‘likning kuchli sochilishi kuzatiladi. Bu hodisaga kritik opalessensiya deyiladi. Bu hodisani bo‘lishiga sabab bu holda moddaning izotermik qisiluvchanlik koeffisiyenti  $\beta_T$  cheksizlikka intiladi, ya’ni

$$\beta_T = -1/V[(dv/dp)_T] \Rightarrow \infty$$


Molekulyar sochilishda sochilgan Yorug‘lik intensivligi  $1/\lambda^4$  dan tashqari  $\beta_T$  ga ham to‘g‘ri mutanosibdir. Kritik opalessensiya holida sochilgan Yorug‘lik intensivligi  $I \sim 1/\lambda^2$  bo‘ladi. Kritik opalessensiyaning bo‘lishiga sabab izotermik qisiluvchanlikning cheksizlikka intilishi bilan bирgalikda zichlikning tasodifiy o‘zgarishi, ya’ni uning fluktuasiyasi ekanligini M. Smoluxovskiy ko‘rsatdi. Biz qaragan holdagi Yorug‘likning molekulyar sochilishdagi Yorug‘likning chastotasi tushuvchi nur chastotasi bilan mos tushadi.

### ***Yorug‘likning kombinatsion sochilishi***

Biz yuqorida takidladi, Yorug‘likning molekulyar sochilishida tushuvchi nuring to‘lqin uzunligi sochilgan Yorug‘likning to‘lqin uzunligi bilan mos tushadi. Lekin 1928 yilda rus olimlari L.I. Mandelshtam, G.S. Landsberg va hind olimi CH.V. Raman ko‘rsatdilarki, Yorug‘lik sochilishining shunday turi mavjudki, sochilgan Yorug‘lik spektrida tushuvchi monoxromatik to‘lqinni xarakterlovchi spektral chiziqlardan tashqari har bir monoxromatik spektral chiziqning ikkala tomonida joylashadigan qo‘sishimcha spektral chiziqlar (yo’ldoshlar) ham hosil bo‘ladi.

Faraz qilaylik suyuqlikka tushuvchi nuring chastotasi  $v_0$  bo‘lsin.

Қо‘shimcha hosil bo‘lgan yo’ldoshlar chastotalarini  $v^1$ ,  $v^{11}$ ,  $v^{111}$ , .... bilan belgilaymiz. Tushuvchi nur chastotasi bilan har bir yo’ldosh chastotasi o‘rtasidagi farq Yorug‘lik sochuvchi modda uchun xarakterli bo‘lib bu farq ana shu modda molekulalarining xususiy infraqizil tebranishlar chastotalariga teng bo‘ladi.



$$\Delta\nu_1 = \nu_0 - \nu' = \pm\nu_{1i} \quad (15)$$

$$\Delta\nu_2 = \nu_0 - \nu'' = \pm\nu_{2i} \quad (16)$$

$$\Delta\nu_3 = \nu_0 - \nu''' = \pm\nu_{3i} \quad (17)$$

Tajriba ko‘rsatdiki, (15), (16), (17) shartlar hamma vaqt ham bajarilmaydi. Kombinasion sochilishda kuzatiladigan yo’ldoshlar infraqizil yutilish sohasida hamma vaqt ham hosil bo‘lmaydi. Bunga sabab bu kombinasion sochilish spektrini hosil bo‘lishi uchun modda molekulasining qutblanuvchanligi  $\alpha$  o‘zgarishi kerak. Infracqizil yutilish spektrlar hosil bo‘lishi uchun modda molekulasining dipol momenti o‘zgarishi kerak. SHuning uchun ham infraqizil yutilish spektrida hosil bo‘ladigan ba’zi chiziqlar kombinasion sochilish spektrida kuzatilmaydi va aksincha.

Yorug‘likning kombinasion sochilish hodisasini soddalashtirilgan kvant nazariyasi asosida quyidagicha tushuntirish mumkin. Odatdagи sharoitda modda molekulalari aksariyati uyg‘onmagan holatda bo‘ladi. Ana shunday holatdagи molekulalarga

$$\epsilon = h\nu \quad (18)$$

formula bilan aniqlanadigan energiyaga ega bo‘lgan kvant tushganda, bu kvant o‘z energiyasining bir qismini molekulaga beradi va natijada chastotasi kichik va to‘lqin uzunligi katta bo‘lgan kvantga aylanadi, ya’ni bu holda «qizil yo’ldoshlar» hosil bo‘ladi. Ikkinchi holda kvant uyg‘ongan molekula bilan uchrashadi, bu holda

molekula o‘z energiyasining bir qismini kvantga beradi. Natijada chastota va energiyasi katta bo‘lgan va to‘lqin uzunligi kichik bo‘lgan kvant, ya’ni «binafsha yo’ldoshlar» hosil bo‘ladi. Odatdagি sharoitda binafsha yo’ldoshlar intensivligi qizil yo’ldoshlar intensivligidan kichik bo‘ladi. Bunga sabab shundan iboratki moddaning uyg‘onmagan atom va molekulalar soni uyg‘ongan atom va molekulalar sonidan ko‘p bo‘ladi.

Haroratning oshishi bilan binafsha yo’ldoshlar intnsivlig tez oshadi, chunki bu holda moddaning uyg‘ongan atom va molekulalar soni haroratning oshishi bilan tez oshadi. Қizil yo’ldoshlar intensivligi haroratning oshishi bilan sezilarli o‘zgarmaydi yoki biroz kamaYadi.

Yorug‘likning kombinasion sochilishi mumtoz nazariyasini rus olimlari G.S. Landsberg va L.I. Mandelshtam yaratdilar. Bu nazariyaning mohiyati quyidagidan iborat. Yorug‘likning elektr maydon kuchlanganligi ( $E$ ) ta’siri ostida molekula ichidagi elektronlar tebranib molekula kattaligi  $P=\alpha E$  ga teng bo‘lgan dipol momentiga ega bo‘ladi. Mumtoz nazariyaga asosan molekulaning qutblanuvchanlik tenzori  $\alpha$  uni atom Yadrolarining oniy vaziyati bilan aniqlanadi. Yadrolarning o‘zi tinch turmasdan balki tartibsiz harakatda bo‘ladi. SHu sababli qutblanuvchanlik doimiy qolmasdan, balki vaqt bo‘yicha o‘zgaradi. Buni chastotalari atom Yadrolarining tebranishi bilan aniqlanadigan garmonik tebranishlarning ustma-ust tushishi ko‘rinishida tasavvur etish mumkin. Bu chastotalar molekulaning xususiy infraqizil tebranishlari chastotalari bilan mos tushadi. Natijada induksiyalangan dipol momentlarining ( $P$ ) modulyasiyasi yuzaga keladi. Agar tashqi elektr maydoni  $E$  vaqt bo‘yicha  $\omega$  chastota bilan garmonik qonun bilan o‘zgarsa u holda  $P$  dipol momentining tebranishlarida  $\omega \pm \Omega_{unp}$  kombinasion chastotalar hosil bo‘ladi. Xuddi shunday chastotalar bu dipol momentlarning nurlanishlarida, ya’ni sochilgan Yorug‘liklarda ham hosil bo‘ladi.

Bu bayon etilgan mulohazani matematik usulda quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin. Agar molekuladagi Yadrolar soni  $N$  ga teng bo‘lsa, u holda bu Yadrolarning erkinlik darajasi  $3N$  ga teng bo‘ladi. Bundan uchtasi ilgarilanma va yana uchtasi aylanma harakatga tegishli bo‘ladi. Қolgan  $N^*=3N-6$  erkinlik

darajalari molekula Yadrolarining ichki harakatiga ya’ni tebranma harakatiga mos keladi. Yadrolarning ichki harakatini tavsifi uchun  $N^1$  koordinatalar ya’ni  $q_1, q_2, q_3, q_4, \dots, q_n$ <sup>\*</sup> kerak bo‘ladi. Yadro muvozanat holatida bo‘lganda barcha koordinatalar nolga teng. Muvozanat holatidan ozroq chetlashganda issiqlik harakati paytida har bir  $q_m$  koordinata  $\Omega_m$  infraqizil chastota va tartibsiz ravishda o‘zgaruvchi  $\delta_m$  fazaga ega bo‘lgan erkin garmonik tebranishda bo‘ladi. Bunday tebranish uchun

$$q_m = a_m \cos(\Omega_m t + \delta_m) \quad (19)$$

o‘rinli bo‘lib, berilgan vaqt momentida molekulani qutblanuvchanligi atomlar Yadrolari orasidagi masofaga bog‘liq deb qabul qilamiz. Tebranishni kichikligi tufayli qutblanuvchanlik tenzori  $\alpha$  ni qatorga yoyib  $q_m$  ni birinchi darajali hadlari bilan kifoyalanish mumkin, soddalik uchun  $\alpha$  ni skalyar deb qabul qilamiz:

$$\alpha = \alpha_0 + \sum \left( \frac{\partial \alpha}{\partial q_m} \right) q_m \dots \quad (20)$$

### Agar yuqoridagi ifodalarni e’tiborga olsak

$$\alpha = \alpha_0 + \sum \left( \frac{\partial \alpha}{\partial q_m} \right) a_m \cdot \cos(\Omega_m t + \delta_m) = \alpha_0 + \frac{1}{2} \sum \left( \frac{\partial \alpha}{\partial q_m} \right) a_m \cdot e^{i(\Omega_m t + \delta_m)} + \frac{1}{2} \sum \left( \frac{\partial \alpha}{\partial q_m} \right) a_m \cdot e^{-i(\Omega_m t + \delta_m)} \quad (21)$$

bo‘ladi.

Tushuvchi to‘lqinni quyidagi kompleks ko‘rinishida yozamiz.

$$E = E_0 \cdot e^{i\omega t} \dots \quad (22)$$

Natijada molekulaning dipol momenti quyidagiga teng bo‘ladi.

$$P = \alpha_0 E_0^{i\omega t} + \frac{E_0}{2} \sum \left( \frac{\partial \alpha}{\partial q_m} \right) a_m \cdot e^{i[(\omega + \Omega_m)t + \delta_m]} + \frac{E_0}{2} \sum \left( \frac{\partial \alpha}{\partial q_m} \right) a_m \cdot e^{i[(\omega - \Omega_m)t - \delta_m]} \dots \quad (23)$$

Bu tenglikdan ko‘rinadiki, sochilgan Yorug‘lik tarkibida faqat tushuvchi nur chastotasi  $\omega$  ga ega bo‘lgan Yorug‘lik emas, balki  $\omega \pm \Omega_m$  kombinasiyaga ega bo‘lgan chastotali Yorug‘lik nurlari ham hosil bo‘ladi. Alovida molekulalar tomonidan sochiladigan to‘lqinlar o‘zaro kogerent emas, chunki Yadrolarning tebranishlarni issiqlik uyg‘onishida va bir molekuladan ikkinisisiga va bir tebranishdan ikkinchisiga o‘tishidan fazalar  $\delta$  o‘zgarishi davriy bo‘lmaydi. Qizil va

binafsha yo'ldoshlarning intensivliklari o'rtasida kvant nazariyasiga asosan quyidagicha bog'lanish mavjud.

$$I_{\text{кузил}} = I_{\text{бинафша}} \exp\left(\frac{\eta\hbar|\Omega_{nm}|}{kT}\right) \quad (24)$$

$$\Omega_{nm} = \frac{E_n - E_m}{\eta} \quad (25)$$

bunda  $E_n$  va  $E_m$  molekula foton bilan to'qnashganda uni n chi sathdan m sathga o'tishdagi energiyalarini ifodalaydi  $E_n > E_m$  bo'lsa binafsha yo'ldosh hosil bo'ladi.  $E_n < E_m$ , bo'lsa qizil yo'ldosh hosil bo'ladi,  $\frac{I_{\text{кузил}}}{I_{\text{бинафша}}} = \frac{N_n}{N_m}$  bu erda sathdagi  $N_n$ ,  $E_n$  molekulalar soni,  $N_m$  – esa  $E_m$  sathdagi molekulalar sonidir.

### **Amaliy mashg'ulotlar**

## MOLEKULARARO ORIENTATSION, INDUKSION VA DISPERSION TA'SIR KUCHLARINING ELEKTRON YUTISH SPEKTRIDA NAMOYON BO'LISHI.

*Ishning maqsadi:* Rodamin 3B bo'yog'i misolida molekulalararo orientatsion, induksion va dispersion ta'sir kuchlarning elektron yutish spektrida namoyon bo'lismeni o'rganish.

*Kerakli asbob-uskuna va moddalar:* spektrofotometr; analitik tarozi; rodamin 3B; xloroform; geksan; 1 mm, 0,1 mm va 0,01 mm qalinlikdagi kyuvetalar.

Ideal gaz qonunlarida gaz molekulalari xususiy hajmga ega emas va ular o'zaro ta'sirlashmaydi deb qabul qilinadi. Bunday hol juda siyraklashgan gazlar uchun o'rini bo'lib, gaz bosimining ortishi bilan ideal gaz qonunlaridan chetlanishlar ortib boradi. Misol: molekulalarni sharlar deb hisoblab, ularning radiusi  $10^{-8} \text{ sm}$  desak, bitta molekulaning hajmi  $V_1 = \frac{4}{3}\pi r^3 \approx 4 \cdot 10^{-24} \text{ sm}^3$ ; normal sharoitda 1  $\text{sm}^3$  da gaz molekulalarining soni (Loshmidt soni)  $n_0 \approx 3 \cdot 10^{19}$  taga teng. Shu 1  $\text{sm}^3$  dagi barcha molekulalarning hajmi  $V = n_0 V_1 = 10^{-4} \text{ sm}^3$ ; ya'ni gaz hajmining taxminan 0,00001 bir qismigina egallanar ekan. Bosim 5000  $\text{atm}$  bo'lganda, Boyl-Mariott qonuniga ko'ra, dastlab 1  $\text{sm}^3$  bo'lgan hajm  $2 \cdot 10 \text{ sm}^3$  gacha kamayadi. Bu vaqtida gaz egallab turgan hajmning yarmi molekulalar xususiy hajmlarining yig'indisidan iborat bo'ladi. Tabiiyki, bunday paytda gaz molekulalarining xususiy hajmlari bilan chegaralanish mumkin emas. Bundan tashqari, bunday paytlarda gaz molekulalari o'zaro ta'sirlashadilar. Molekulalararo o'zaro ta'sir tortishish va itarishish kuchlarning natijasidan iborat bo'lib, o'z tabiatiga ko'ra birnecha xil bo'lishi mumkin. Van der-Vaals kuchlari, vodorod bog'lanish va shunga o'xshaganlar. Aytilganlardan ma'lum bo'lib turibdiki, gazning haqiqiy holatini xarakterlash uchun ideal gaz qonunlariga tuzatmalar kiritish kerak. Eng avvalo, real gazlarning molekulalari ma'lum hajmga ega bo'lganliklari uchun, gazning egallagan butun hajmidan shu gaz molekulalarining xususiy hajmini xarakterlaydigan biror bir kattalikni ayirish kerak, masalan,  $b$ -hajmini ayirish kerak. Demak, 1  $\text{mol}$  gaz uchun  $PV = RT$  Mendeleyev-Klapeyron tenglamasidagi  $V$  ning o'rniga  $V - b$  olish kerak. Ko'rsatish mumkinki,  $b = 4nV_0$  va  $b$  hajm o'lchov birligida bo'ladi. Gaz molekulalarining tortishuvi tufayli hosil bo'ladigan qo'shimcha ichki bosim hajm birligidagi gaz molekulalari sonining kvadratiga to'g'ri proporsiyonal. Hajm birligidagi zarralar soni  $n = 1/V$  bo'lgani uchun, qo'shimcha bosimni  $P_g = \frac{a}{V^2}$  deb olish mumkin, bu yerda  $a$  – proporsionallik koeffitsiyenti. Shunday qilib, 1  $\text{mol}$  real gazning holatini xarakterlovchi tenglama quyidagicha bo'ladi:

$$\left( P + \frac{a}{V^2} \right) (V - b) = RT, \quad (1)$$

bu tenglama birinchi marotaba gollandiyalik olim Yan Diderik Van der-Vaals tomonidan (1873 y.) aniqlanganligi uchun unga Van der-Vaals tenglamasi deyiladi.

1907 yilda Van der–Vaalsga Nobel mukofoti berilgan. (1)–formuladagi **a** ba **b** larga Van der–Vaals doimiyleri deyiladi. **a** va **b** lar har bir gazlar uchun doimiy son bo’lib, hamma vaqt  $a \gg b$ . **a** ning o’lchov birligi  $N \cdot M^4/mol^2 [a = VP^2 = N/M^2 \cdot M^6/mol^2 = NM^4/mol^2]$ .

Real gazlar holatini ifodalovchi Van der–Vaals tenglamasi yagona emas, boshqa olimlar ham (Bertlo, Kammerling–Onnes, Diterichi va boshqalar) real gaz holatini ifodalovchi o’zlarining quyidagi formulalarini tavsiya etganlar. Bertlo tenglamasi:

$$\left( p + \frac{a}{TV^2} \right) (V - b) = RT \quad (2)$$

Kammerling–Onnes tenglamasi:

$$PV = RT \left( 1 + \frac{B_2}{V} + \frac{B_3}{V^2} + \dots \right) \quad (3)$$


Diterichi tenglamasi:

$$P(V - b) = RT e^{-\frac{a}{RTb}} \quad (4)$$

Bu tenglamalar orasida Van der–Vaals tenglamasi real gazlar holatini ifodalovchi keng qo’llaniladigan va reallikni aniqroq aks ettiradigan tenglamadir. Yuz va ming atmosferalarda Mendeleyev–Klapeyron tenglamasi bo’yicha olgan natijalar tajribada olgan natijalardan ko’p farq qiladi. Van der–Vaals tenglamasi bo’yicha olingan natijalar ham tajribada olgan natijalar bilan to’la mos kelmaydi, farq ancha oz. Bu fakt shuni ko’rsatadi, Van der–Vaals tenglamasi ham real gazning xususiyatini to’la ifodalamas ekan, yana qo’shimcha parametrlar kiritishga to’g’ri keladi.

Molekulalararo Van der–Vaals ta’sir kuchlari asosan quyidagi uch xilda bo’ladi; *orientatsion, induksion, dispersion*.

1. **Orientatsion** ta’sir – qutbli molekulalar o’rtasida vujudga keladi. Dipol momenti  $P_1$  va  $P_2$  bo’lgan ikkita molekula o’zaro ta’sirlashib quyidagicha joylashishi mumkin (4.6.–rasm), ya’ni molekulalar o’zaro ta’sirlashib, bir–biriga nisbatan orientatsiyalanadi. Bu paytda dipollarning o’zaro ta’sirlari minumimga ega bo’ladi.



### **1–rasm. Molekulalarning bir–biriga nisbatan orientatsiyalanishi.**

Orientatsion ta’sir energiyasi quyidagiga teng:

$$U_{or} = -2P_1^2 P_2^2 / 3kTr^6 \quad (5)$$

bu yerda  $P_1$  va  $P_2$  – molekulalarning dipol momentlari,  $k$  – Bolsman doimiysi,  $T$  – harorat,  $r$  – molekulalar orasidagi masofa. (5) dan ko’rinadiki haroratning oshishi bilan orientatsion ta’sir energiyasi kamayadi.

2. **Induksion** ta’sir – bu ta’sir birinchisi dipol momentiga ega bo’lgan, ikkinchisi dipol momentiga ega bo’lmagan molekulalar o’rtasida vujudga keladi. Induksion ta’sir energiyasi quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$U_{in} = -2\alpha P^2 / r^6 \quad (6)$$

bu yerda  $\alpha$  – qutblanish koeffitsienti.

3. **Dispersion** ta'sir – bu ta'sir ikkita dipol momentiga ega bo'lмаган molekulalar о'rtasida vujudga keladi. Olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, elektron yadro atrofida harakat qilib yurganda, molekulalarda vaqtinchalik dipol momenti vujudga keladi. Bunday paytlarda doimiy dipol momentiga ega bo'lмаган molekulalar ham o'zaro ta'sirlashadi. Dispersion ta'sir energiyasi quyidagidan aniqlanishi mumkin:

$$U = -h\nu\alpha^2 / 2r^6 \quad (7)$$

$h$  –Plank doimiysi,  $\nu$  –yadrolar atrofidagi manfiy zaryadlarning aylanish chastotasi. (1)–(3)–formulalardan ko'rindiki, Van der–Vaals ta'sir kuchlarining barchasi  $r^6$  ga teskari proporsiyonaldir. Bu shundan dalolat beradiki, ta'sir kuchlari bir xil tabiatga ega, shuning uchun ham bu ta'sir energiyasini umumiy holda quyidagicha yozish mumkin:

$$U_i = -A_i / r^6 \quad (8)$$

$$(8)-formulada A_{or} = -\frac{2P_1^2 P_2^2}{3kT}, A_m = 2\alpha P^2 \text{ va } P_{dis} = \frac{h\nu}{2}\alpha^2.$$

Van der–Vaals kuchlari gazlarda, suyuqliklarda va eritmalarda kuzatiladi. Quyidagi 1–jadvalda ba'zi bir moddalar uchun Van der–Vaals ta'sirlarining energiyasi keltirilgan. Nazariy o'tkazilgan hisoblashlar shuni ko'rsatadiki, Van der–Vaals ta'sir energiyalari  $r \approx (4-10) \cdot 10^{-10} m$  bo'lganda namoyon bo'ladi.

**1–jadval.**

#### ***U<sub>i</sub> ga nisbatan Van der–Vaals ta'sir kuchlarining qiymati***


Modda	P, D	$A_{or}$ , erg · sm <sup>-6</sup>	$A_{ind}$ , erg · sm <sup>-6</sup>	$A_{dis}$ , erg · sm <sup>-6</sup>
N <sub>2</sub>	–	–	–	11.3
N <sub>2</sub>	–	–	–	62
CH <sub>4</sub>	–	–	–	117
CJ <sub>2</sub>	–	–	–	461
HJ	0.38	0.35	1.68	388
HBr	0.78	6.2	4.05	176
HCl	1.03	18.6	5.4	100
NH <sub>3</sub>	1.5	84	10	93

1–jadvalda keltirilgan natijalardan ko'rindiki, molekulalar orasidagi ta'sirda dispersion ta'sir asosiy rol o'ynaydi, uning qiymati boshqa ta'sirlarga nisbatan hamma vaqt katta. (1)–formula 1 mol real gaz uchun Van der–Vaals tenglamasi edi. Ixtiyoriy miqdordagi gaz uchun Van der–Vaals tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\left( P + \frac{m^2}{\mu^2} \frac{a}{V^2} \right) \left( V - \frac{m}{\mu} b \right) = \frac{m}{\mu} RT \quad (9)$$

Odatda, bu har uchchala ta'sir kuchlari Van der–Vaals ta'sir kuchlari deyiladi. Ana shu Van der–Vaals kuchlari elektron yutish va lyuminessensiya spektrlarida qanday namoyon bo'lishini rodamin 3B misolida ko'rib o'tamiz. Agar rodamin 3B moddani qutbli organik erituvchilarda – spirtda, xloroformda eritsak, u holda uning yutish va lyuminessensiya spektrlari konsentratsiyaga qarab doimiy qoladi.


Tajribadan olingen bu natijani shu bilan tushintirish mumkinki, erigan modda molekulalari keng konsentratsiya intervalida ( $10^{-4}$ – $10^{-5} M$ ) yakka holda, monomer shaklida bo'ladi. Bu yerda Buger–Lambert–Beer qonuni o'rinli. Luminessensiyaning chiqishi ~90% ga teng. Qolgan 10% ni nurlanishsiz o'tishlar tashkil etadi. Bunda spirt, ya'ni erituvchi molekulalari rodamin 3B molekulalarini o'rab olib, rodamin 3B molekulalarining o'zaro ta'siriga to'sqinlik qiladi. Eriган modda erituvchi tomonidan solvat qobig'ini hosil qiladi. Erituvchi bilan erigan modda ta'siri kuchlidir. Eriган modda molekulalari o'zaro sezilarli ta'sirlashmaydi. Shunung uchun yutish va lyuminessensiya spektralari konsentratsiyaga qarab doimiy qoladi. Agar shu eritmalarining birontasini olsak, masalan,  $C=10^{-5} M$  uni xloroform bilan hosil qilgan qobig'ini kamaytira borsak, u holda rodamin 3B molekulalarining o'zaro tasiri vujudga keladi. Bunung uchun rodamin 3B ning  $C=const$  bo'lganda qutbli erituvchidan qutbsiz erituvchiga o'tgandagi o'zgarishini ko'rib chiqish mumkin. 2-rasmda rodamin 3B bo'yog'ining doimiy konsentratsiyali ( $C=10^{-5} M$ ) xloroform bilan geksan binar erituvchida yutish va lyuminessensiya spektralarining o'zgarishi keltirilgan.



2-rasm. Rodamin 3B bo'yog'ining xloroformdan  
geksanga o'tishda ( $5 \times 10^{-5}$  g/ml) yutish spektrining  
o'zgarishi: 1–100, 2–40, 3–10, 4–4, 5–2% xloroform.


2-rasmdan ko'rinyaptiki, xloroformdan geksanga o'tish vaqtida monomerlarga tegishli tasmaning intensivligi kamayadi, spektr katta to'lqin tomon kengayadi. Binar erituvchida geksan miqdori osha borishi bilan bu jarayon kuchayadi va geksan miqdori juda ko'p bo'lganda monomerlarga tegishli tasmaning intensivligi bu tasmaga nisbatan katta to'lqin uzunligi tomonida vujudga keladigan tasmaning intensivligi bilan taqriban bir xil bo'ladi. Kuzatilgan spektral o'zgarishlar rodamin 3B molekulalarning o'zaro ta'sirlashib assotsiatlar hosil qilganligidan dalolat beradi. Xloroformdan geksanga o'ta borgan sari, monomerlarga tegishli bo'lgan lyuminessensiya spektrining intensivligi kamayib, tasmaning katta to'lqin uzunligi tomonida kengayish kuzatiladi. Binar erituvchida geksanning miqdori juda ko'p bo'lganda, monomerlarga tegishli tasmani katta to'lqin uzunligi tomonida yangi lyuminessensiya tasmasi kuzatiladi. Bu tasmaga tegishli bo'lgan nurlanishning intensivligi monomerlarning nurlanishiga tegishli bo'lgan tasmaning intensivligidan bir necha marotaba kamdir. Monomerlarga tegishli bo'lgan tasma bilan yangi nurlanish tasmasining o'zaro joylashishlarini aniqlash maqsadida, barcha hollarda

kuzatilayotgan murlanishlar tasmalari maksimumi birga normallashtiriladi. Lyuminessensiya spektriga yangi tasmaning kuzatilishi tekshirilayotgan eritmada yangi lyuminessensiya markazining vujudga kelganligidan dalolat beradi. Rodamin 3B bo'yogni xloroformdan geksanga o'tishdagi yutish va lyuminessensiya spektrlarida kuzatiladigan o'zgarishlarini qisqacha quyidagicha tushuntirish mumkin: yuqorida rodamin 3B molekulalari xloroform molekulalari tomonidan o'rabi olinganligi uchun keng konsentratsiya intervalida uning yutish va lyuminessensiya spektrlari doimiy qolganligini ko'rgan edik. Binar erituvchi tarkibida xloroform miqdorining kamayib borish hisobiga rodamin 3B ni xloroform molekulasi tomonidan o'rabi olinishi kuchsizlanadi, solvat qobig'i kamayadi, natijada rodamin 3B molekulalari o'zaro ta'sir qila boshlaydilar. Rodamin 3B molekulalari o'rtasidagi o'zaro ta'sir, binar erituvchida xloroformning miqdori kamayib borgan sari kuchayadi. Olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki, binar erituvchida xloroform miqdori kam bo'lgan hollarda rodamin 3B molekulalari o'zaro quyidagicha joylashar ekan (qarang, 3-rasm). Ulami dipol deb qarash mumkin.



*3-rasm. Rodamin 3B molekulalarining dipol holatlari.*

Tanlangan binar erituvchilarda rodamin 3B (cation, anion) shaklida bo'llib, assotsiatsiyalanadilar. Bu assotsiatsiya vaqtida rodamin 3B molekulalarining uyg'ongan elektron sathi qismrlarga bo'llinar ekan. Bo'llinish darajasi assotsiatga nechta molekula kirganligiga bog'liq. Eng oddiy holda dimer bo'lgan vaqtida u quyidagicha bo'llindi:



*4-rasm. Rodamin 3B molekulalari dimer holadagi elektron sathining bo'llinishii.*

rodamin 3B molekulasi misolida molekulalararo Van der-Vaals kuchlari ta'sirining elektron spektrlarida qanday namoyon bo'llishini ko'rish mumkin. Bu yerda ko'rib o'tilgan rodamin 3B ning assotsiati shu moddamming suvda kuzatilgan assotsiatidan tubdan farq qilishi, asosan molekulalararo har xil ta'sir natijasidir. Keltirib o'tgan

misolimiz hosil bo'lgan assotsiatlarning tuzilishini, hamda ushbu farqlar elektron spektrlarida namoyon bo'lishini ko'rsatadigan misoldir.

### *Ishmi bajarish taribi.*

1. 20% xloroform va 80% geksan bo'lgan binar erituvchi tayyorlang.
2. Shu binar erituvchida rodamin 3B bo'yog'ining  $c_1=10^{-3}$  g/ml,  $c_2=10^{-4}$  g/ml,  $c_3=10^{-5}$  g/ml konsentratsiyali eritmalarini tayyorlang.
3. Har uchala konsentratsiyali eritmaning yutish spektrlarini tushiring va uchala spektrini bitta millimetrligida qoq'ozga o'tkazing.
4.  $c_1=10^{-3}$  g/ml eritmaga mos keluvchi spektri molekulalarning monomer shakliga tegishli ekanligidan yuqori konsentratsiyadagilari rodamin 3B molekulalrining assotsiatsiyaliga tegishlilikini isbotlang.
5. Rodamin 3B ni suvdagi assotsiyatsiyasi bilan binar erituvchida hosil qilgan assotsiatlarining spektrlaridagi farqlarni tushuntirib bering.

Konsentratsiyaning oshishi bilan monomerlarga tegishli bo'lgan tasmaning intensivligi kamayadi, spektr katta to'lqin tomonda kengayadi ( $10^{-4}$  g/ml), konsentratsiya oshib borishi bilan bu jarayon yanada kuchayadi va monomerlarga tegishli bo'lgan tasma intensivligi yanada kamayadi va uning katta to'lqin uzunligi tomonida yangi tasma vujudga keladi. Bu jarayon katta konsentratsiyali eritmalarida rodamin 3B molekulalarining o'zaro assotsiatsiyalari hosil qilinganliklari bilan tushuntiriladi. Bunga ishonch hosil qilish uchun  $10^{-3}$  g/ml eritma spektrini bir soatdan keyin tushiring. Unda eritmaning yutish qobiliyati kamayganligini kuzatasiz va eritmaga sinchiklab qarasangiz, mayda-mayda zarrachalarni ko'rasisiz. Bu tekshirishlayotgan eritmada yuqori darajali assotsiatlar hosil bo'lgani bilan tushuntiriladi.

Rodamin 3B molekulasi assotsiyatsiyasi suvdagi o'rganilgan. Rodamin 3B ning suvdagi ( $10^{-3}$  g/ml) eritmasida hosil bo'lgan assotsiatlar spektrida monomerlar yutish spektriga nisbatan qisqa to'lqin uzunligida yangi tasma ( $\lambda_{max}=525$  nm) hosil bo'lgan bo'lsa, shu bo'yogni molekullari ( $10^{-3}$  g/ml) xloroform+geksan binar erituvchisida ham assotsiatsiyalananadilar. Ammo, bu hosil bo'lgan rodamin 3B assotsiatlari o'zlarining monomer molekulalariga tegishli bo'lgan yutish tasmasiga nisbatan katta to'lqin uzunligi tomonidan joylashgan yangi keng tasma bilan xarakterlananadilar (4.7.-rasm). Bu bir xil moddani ikkita har xil tuzilishga ega bo'lgan assotsiatlarning vujudga kelganligi bilan tushuntiriladi. Haqiqatan ham rodamin 3B suvdaga vodorod bog'lamish orqali assotsiat hosil qilgan bo'lsa, binar erituvchida shu moddamning molekulalari Van der-Vaals kuchlari yordamida assotsiatlar hosil qiladi va bu assotsiatlar tuzilishi 3-rasmida ko'rsatilgandek bo'ldi.

### Sinov savollari

1. Real gaz nima? Real gaz uchun Van der-Vaals tenglamasini yozing.
2. Real gaz uchun Berlio, Kammerling-Onnes va Diterichi tenglamalarini yozib, tushuntirib bering.

3. Oriyentasion ta'sir qachon vujudga keladi va uning ta'sir energiyasi qanday ifodalanadi?
4. Induksion ta'sir qachon vujudga keladi va uning ta'sir energiyasi qanday ifodalanadi?
5. Dispersion ta'sir qachon vujudga keladi va uning ta'sir energiyasi qanday ifodalanadi?
6. Erimalarda Van der-Vaals kuchlari ta'sirida hosil bo'ladigan assotsiatlar elektron yutish spektrlarida qanday namoyon bo'ladi?
7. Assotsiasiya darajasi va uyg'ongan elektron sathlarning bo'linishini tushuntirib bering.

## FLUORESSENSIYA KVANT CHIQISHINI NISBIY USUL BILAN ANIQLASH.

Kvant chiqishini aniqlash uchun kvant birliklarda lyuminessensiya intensivligini o'lchab, modda tomonidan yutilgan yorug'lik intensivligining qiymatiga bo'lish yetarlidir. Bunday o'lchov ishlarni amalga oshirish ancha murakkab bo'lib, uslubiy jihatdan ko'p mehnat talab qiladi. Lyuminessensiyaga oid qator qo'llanmalarda ko'pgina moddalarning yuqorida aytilgan usul (mutloq usul) bilan aniqlangan kvant chiqishining qiymatlari adabiyotlar keltirilgan.

Mutloq kvant chiqishi ma'lum bo'lган modda (etalon) va kvant chiqishi aniqlanadigan modda lyuminessensiya intensivligining qiymatlarini solishtirish yo'li bilan kvant chiqishini aniqlash mumkin. Bunday o'lchash usuli oddiy bo'lib, lyuminessensiya kvant chiqishini aniqlashning nisbiy usuli deb yuritiladi.

**Ishning maqsadi:** no'ma'lum moddaning lyuminessensiya kvant chiqishini aniqlash.

**Kerakli asbob–uskuna va moddalar:** spektrofotometr; lyuminessent qurilma; organik bo'yoqlar – rodamin 6J, rodamin C; erituvchi – suv (distillangan) yoki etil spirti; 0,1 santimetrali kyuveta; planimetr (yuzani o'lchaydigan asbob). Etalon modda sifatida rodamin 6J ning suvdagi eritmasi olinadi ( $B_{en}=0,69$ ).

### Ishni bajarish tartibi:

1. O'rghanuvchi rodamin C va rodamin 6J ning etil spirtida eritmalarini tayyorlanadi.
2. Tayyorlangan eritmalarining yutish spektrlari spektrofotometr yordamida o'lchanadi va grafigi millimetrali qog'ozda chiziladi.
3. Yuqorida keltirilgan mulohazalarga tayanib,  $\lambda_{uyg}$  tanlab olinadi.
4.  $D(\lambda_{uyg})$ ,  $D_{et}(\lambda_{uyg})$  lar aniqlanadi.
5. Eritmalmi ma'lum marta suyultirib, optik zichliklarining qiymati 0,01–0,08 sohada joylashishiga erishiladi (kyuveta qalinligi 0,1 sm ga teng deb olinadi).
6. Lyuminessent qurilmada  $\lambda_{uyg}$  tanlab olingandan so'ng, kyuvetalar bo'linmasiga navbat bilan etalon va o'rghanuvchi moddalar joylashtiriladi. Kirish tirqishi shunday tanlanadiki, lyuminessensiya spektrlarining maksimumlari qayd qiluvchi qurilmalarning taqsimotidan chiqib ketmasin. Odatda, o'lchash ishlari o'rghanuvchi va etalon moddalar uchun aynan bir xil sharoitlarda olib boriladi. Agar etalon va o'rghanuvchi moddalarning maksimumida lyuminessent nurlanish intensivliklari uch martadan ko'proq farq qilsa, ularni tenglashtirish maqsadida lyuminessensiya intersivligi kattaroq bo'lган eritma ma'lum darajada suyultiriladi,  $D(\lambda_{uyg})$  yoki  $D_{et}(\lambda_{uyg})$  kamayishi

$$B_{kv} = B_{st} \frac{\int F(v)dv}{\int F_{st}(v)dv} \cdot \frac{n^2}{n_{st}^2} \cdot \frac{D_{st}}{D}, \quad (1)$$

bu yerda  $B_{st}$  – standart modda fluoresensiyaning kvant chiqishi,  $n_{st}$  va  $n$  – standart va kvant chiqishi aniqlanadigan moddaning sindirish ko'rsatkichi,  $D_{st}$  va  $D$  – standart va kvant chiqishi o'lchanadigan moddaning uyg'otuvchi yorug'lik to'lqin uzunligiga

mos keluvchi optik zichliklari. (1)–formula yordamida hisobga olinadi va tirkish qaytadan tanlanadi.

7. Etalon va o'rganuvchi moddalarning lyuminessensiya spektrlari o'lchanadi va

$$I_{haq} = I_{kuz} \frac{\alpha_{yut} + \alpha_l \cos\varphi}{\alpha_{yut}}$$
 ifodadan foydalanib, ularga tuzatma kiritiladi. So'ngra,

spektrlar egallagan yuzalar o'zaro solishtiriladi va o'rganuvchi moddaning kvant chiqishi (1)–formula yordamida aniqlanadi.

#### **Sinov savollari**

1. Yutish va lyuminessensiya spektrlari nima?
2. Moddaning kvant chiqishi nima?
3. Moddaning energetik va kvant chiqishlari orasidagi munosabatni keltirib chiqaring.
4. Modda kvant chiqishini qanday usullar bilan aniqlash mumkin?
5. Etalon moddalari qanday talablarga javob berishi kerak?
6. Reabsorbsiya hodisasi nima?
7. Lyuminessensiya kvant chiqishining kamayishiga olib keluvchi asosiy sabablar.
8. Energetik va kvant chiqishlari uchun S.I.Vavilov qonunlarini tushuntirib bering.
9. Kvant chiqishi va uyg'ongan vaqt davomiyligi ( $\tau$ ) orasidagi bog'lanishning mohiyatini aytib bering.

#### **FOTONIKANING ZAMONAVIY MASALALARI FANIDAN TEST SAVOLLARI**

1. Fotonning tinchlikdagi massasi ..... teng.

+ nolga

- elektron massasiga

- proton massasiga
- neytron massasiga

2. Fotonning energiyasi to'lqin uzunlikka .....

- + teskari proporsional
- to'g'ri proporsional
- bog'liq emas
- ma'lumotlar etarli emas

3. Fotonning energiyasi chastotaga.....

- + to'g'ri proporsional
- teskari proporsional
- bog'liq emas
- ma'lumotlar etarli emas

4. Yorug'likning to'lqin nazariyasining asoschisi kim?

- +Gyugens
- Nyuton
- Maksvell
- Malyus

5. Yorug'likning zarracha nazariyasining asoschisi kim?

- + Nyuton
- Gyugens
- Maksvell
- Malyus

6. Fotometrik kattaliklarni ko'rsating?

- + Yorug'lik oqimi, Yorug'lik kuchi, Yoritilganlik, ravshanlik, Yorituvchanlik
- Yorug'lik oqimi, Yorug'lik kuchi
- Yoritilganlik, ravshanlik
- Yoritilganlik, ravshanlik, Yorituvchanlik

7. Maksvell nazariyasi qachon yaratilgan?

- +19 asrning ikkinchi yarmida
- 18 asrning ikkinchi yarmida
- 20 asrning ikkinchi yarmida
- 17 asrning ikkinchi yarmida

8. To'la ichki qaytish hodisasi bo'lish uchun quyidagi ikki shart bajarilishi kerak.

- + 1. Yorug'lik nuri optik zichligi katta muhitdan optik zichligi kichik muhitga tushishi kerak. 2. Tushish burchagini qiymati chegaraviy burchak qiymatidan katta bo'lishi kerak.
- 1. Yorug'lik nuri optik zichligi katta muhitdan optik zichligi kichik muhitga tushishi kerak. 2. Tushish burchagini qiymati chegaraviy burchak qiymatidan kichik bo'lishi kerak.
- to'g'ri javob berilmagan

9. Chegeraviy burchak deb ..... teng bo'lgandagi tushish burchagiga aytildi.
- + sinish burchagi  $90^0$  ga
  - sinish burchagi  $45^0$  ga
  - sinish burchagi  $0^0$  ga
  - to'g'ri javob berilmagan
10. Yorug'likning to'la ichga qaytish hodisasidan foydalanib ..... uzoq masofaga uzatish mumkin.
- + Yorug'lik energiyasini va jism tasvirini
  - Yorug'lik energiyasini
  - jism tasvirini
  - Yorug'lik oqimini
11. Yorug'lik kuchi yo'nalishga bog'liq bo'lgan manbalarga ..... manbalar deyiladi.
- + anizotrop
  - izotrop
  - tabiiy
  - sun'iy
12. Yorug'lik kuchi yo'nalishga bog'liq bo'lмаган manbalarga ..... manbalar deyiladi.
- + izotrop
  - anizotrop
  - tabiiy
  - sferik
13. **1 sham-** bu .....
- + to'la nurlantirgichning  $1\text{sm}^2$  yuzasidan platinaning qotish tempuraturasida ( $2046,6^0\text{K}$ ) nurlantiruvchi yuzaga o'tkazilgan normal yo'nalishdagi Yorug'lik kuchining  $1/60$  qismiga tengdir.
  - to'la nurlantirgichning  $1\text{m}^2$  yuzasidan platinaning qotish tempururasida ( $2046,6^0\text{K}$ ) nurlantiruvchi yuzaga o'tkazilgan normal yo'nalishdagi Yorug'lik kuchining  $1/60$  qismiga tengdir.
  - to'la nurlantirgichning  $1\text{sm}^2$  yuzasidan platinaning erish tempururasida ( $2046,6^0\text{K}$ ) nurlantiruvchi yuzaga o'tkazilgan normal yo'nalishdagi Yorug'lik kuchining  $1/60$  qismiga tengdir.
- to'la nurlantirgichning  $1\text{sm}^2$  yuzasidan platinaning qotish tempururasida ( $2046,6^0\text{K}$ ) nurlantiruvchi yuzaga o'tkazilgan normal yo'nalishdagi Yorug'lik kuchining  $1/600$  qismiga tengdir.
- 14. Kandella – bu** .....
- + to'la nurlangich  $1/600000 \text{ m}^2$  yuzasidan shu yuzaga ( $\perp$ ) yo'nalishda  $P=101325 \text{ Pa}$  bosimda va platinani qotish temperaturasiga teng temperaturada nurlantirilayotgan Yorug'lik kuchidir.
  - to'la nurlangich  $1/60 \text{ m}^2$  yuzasidan shu yuzaga ( $\perp$ ) yo'nalishda  $P=101325 \text{ Pa}$  bosimda va platinani qotish temperurasiga teng temperaturada nurlantirilayotgan Yorug'lik kuchidir.
  - to'la nurlangich  $1/600000 \text{ m}^2$  yuzasidan shu yuzaga ( $\perp$ ) yo'nalishda  $P=101325 \text{ Pa}$  bosimda va platinani erish temperurasiga teng temperaturada nurlantirilayotgan Yorug'lik kuchidir.
  - to'la nurlangich  $1/600000 \text{ sm}^2$  yuzasidan shu yuzaga ( $\perp$ ) yo'nalishda  $P=101325 \text{ Pa}$  bosimda va platinani qotish temperurasiga teng temperaturada nurlantirilayotgan Yorug'lik kuchidir.
15. Ko'zga ko'rindigan, infraqizil va ultrabinafsha nurlari birgalikda ..... diapazondagagi nurlari deyiladi.

- +optic
- gamma
- rentgen
- elektromagnit
- 16. Energiya oqimi zichligi vektori ..... vektori deyiladi
  - + Umov-Poyting
  - Umov
  - Poyting
  - Maksvell
- 17. Umov-Poyting .....qancha energiya miqdori oqib o'tishini ko'rsatadi.
  - + $1\text{m}^2$  yuza orqali 1 sekundda
  - $1\text{sm}^2$  yuza orqali 1 sekundda
  - $1\text{mm}^2$  yuza orqali 1 sekundda
  - $1\text{dm}^2$  yuza orqali 1 sekundda
- 18. Elektromagnit tebranishlari turli xil yo'nalishlarda turli xil bo'lgan hamda tartibsiz tebranadigan Yorig'liklarga ..... Yorug'lik deyiladi.
  - + tabiiy
  - qutblangan
  - anizotrop
  - izotrop
- 19. Elektromagnit vektorining tebranishlari aniq biror yo'nalish yoki biror bir qonun asosida tebranuvchi Yorug'likka ..... Yorug'lik deyiladi.
  - + qutblangan
  - tabiiy
  - anizotrop
  - izotrop
- 20. Kristall ichida turli tezliklar bilan bir yo'nalish bo'yicha o'zaro ikkita tik yo'nalishlar bo'yicha qutblangan ..... nurlar tarqaladi.
  - +oddiy va oddiy bo'lмаган
  - oddiy
  - oddiy bo'lмаган
  - tabiiy
- 21. Magnit maydonida Yorug'likning ikkiga ajralib sinish hodisasi 1905 yilda ..... tomonidan kashf etildi.
  - + Kotton va Muton
  - Kotton
  - Muton
  - Maksvell
- 22. Elektr maydonida Yorug'likning ikkiga ajralib sinish hodisasi ..... tomonidan kashf etildi.
  - +Kerr
  - Kotton
  - Muton
  - Maksvell
- 23. Yorug'likning kvant nazariyasini tasdiqlovchi tajribalardan biri bu .....
  - +Yorug'lik bosimi
  - Yorug'lik difraksiyasi
  - Yorug'lik interferensiyasi
  - Yorug'lik dispersiyasi

24. Yorug'likning kvant nazariyasini tasdiqlovchi tajribalardan biri bu .....

- + Kompton hodisasi
- Yorug'lik difraksiyasi
- Yorug'lik interferensiyasi
- Yorug'lik dispersiyasi

25. Yorug'likning kvant nazariyasini tasdiqlovchi tajribalardan biri bu .....

- + Fotoeffekt hodisasi
- Yorug'lik difraksiyasi
- Yorug'lik interferensiyasi
- Yorug'lik dispersiyasi

26. ....shart bajarilsa interferensiya hodisasi yuz beradi.

- +  $\bar{J} \neq J_1 + J_2$
- $J = J_1 + J_2$
- $J = J_1 + J_2 + 2J_1 J_2$
- $J = J_1 + J_2 + J_1 J_2$

27. Qo'shni maksimumlar (yoki minnimum) orasidagi masofa interferension polosa ..... deyiladi

- + kengligi
- manzarasi
- balandligi
- to'g'ri javob berilmagan

28. Interferension polosa kengligi quyidagi tenglik bilan aniqlanadi.

$$+ \Delta y_m = \Delta y'_m = \frac{L}{\ell} \lambda$$

- $d_2 - d_1 = \frac{yl}{L}$
- $2L(d_2 - d_1) = 2yl$
- $2L(d_2 - d_1) = yl$

29. Mavhum manbalar orasidagi masofa kamayishi interferension yo'lning ..... olib keladi.

- + kengayishiga
- torayishiga
- masofaga bog'liq emas
- ayrim hollarda kengayishi yoki torayishi mumkin

30. Tirqishning diametri qancha kichik bo'lsa, difraksion manzara shuncha ..... kuzatiladi.

- + yaqqol
- noyaqqol
- keng
- tor

31. Fazoviy burchak kattaligi quyidagiga tengdir.

$$+ \alpha \Omega = \frac{d\sigma}{r^2} \cos \varphi$$

$$-\Omega = \frac{d\sigma}{r} \cos\varphi$$

$$-\alpha\Omega = \frac{d\sigma}{r^3} \cos\varphi$$

$$-\alpha\Omega = \frac{d\sigma}{r^4} \cos\varphi$$

32. Izotrop manbalar uchun Yorug'lik kuchi toping.

$$+ I = \frac{\Phi}{4\pi}$$

$$- I = \frac{\Phi}{\pi}$$

$$- I = \frac{\Phi}{4}$$

$$- I = \frac{\Phi}{2\pi}$$

33. Yorug'lik manbai nuqtaviy bo'lmasdan ma'lum bir o'lchamga ega bo'lsa, bunday manbalarni xarakterlash uchun .....degan tushuncha kiritiladi.

+ Ravshanlik

- Yorug'lik oqimi

- Yoritilganlik

- Yorituvchanlik

34. Elektromagnit maydon muhitda ..... tezlik bilan elektromagnit to'lqin shaklida tarqaladi.

$$+ \mathcal{G} = \frac{c}{\sqrt{\epsilon\mu}}$$

$$- \mathcal{G} = \frac{c}{\sqrt{\mu}}$$

$$- \mathcal{G} = \frac{c\pi}{\sqrt{\epsilon\mu}}$$

$$- \mathcal{G} = \frac{\lambda}{\sqrt{\epsilon\mu}}$$

35. Harakatdagi yassi monoxromatik to'lqinning  $\vec{E}$  va  $\vec{H}$  maydon vektorlari bir ..... xil fazada tebranadi.

+bir

-har

-ikki

-uch

36. Nurlanish kvanti energiyasi quyidagi formula orqali topiladi.

$$+ \epsilon = \hbar\omega = h\nu$$

$$- \epsilon = \hbar\lambda = h\nu$$

$$- \epsilon = \hbar\lambda$$

$$- \epsilon = \hbar\lambda = h\theta$$

37. Yorug'likning elektromagnit nazariyasiga asosan Yorug'lik to'lqinlari ..... to'lqin ekanligi kelib chiqadi.

+ ko'ndalang

- bo'ylama

-yassi

-sferik

38. Yorug'likning qutblanish hodisasi Yorug'lik to'lqinlari ..... to'lqin ekanligini tajribada isbotlaydi.

+ ko'ndalang

- bo'ylama

-yassi

-sferik

39. Muhitning tuzilishi va xossalari turi yo'nalishlar bo'yicha turli xil bo'lgan muhitlarga ..... muhitlar deb ataladi.

+ anizotropik

-izotropik

-bir jinsli

-xira

40. Koshi nazariyasi orqali ..... dispersiya tushuntiriladi.

+normal

-anomal

-ham normal, ham anomal

-to'g'ri javob berilmagan

41. Tajribada anomal dispersiyani kuzatgan olim kim?

+Leru

-Maksvell

-Lebedev

-Fuko

42. Anomal dispersianing yuzaga kelishiga sabab nima?

+Yorug'likning yutilishi

- Yorug'likning sinishi

- Yorug'likning qaytishi

- Yorug'likning to'la ichki qaytishi

43. k- yutilish koeffisiyenti manfiy bo'lgan moddalardan Yorug'lik o'tganda uning intensivligi .....

+ortadi

-kamaYadi

-o'zgarmaydi

-modda turiga bog'liq

44. Teng qalinlikka tegishli interferensiyaga ..... lokallahsgan interferensiya ham deyiladi.

+sirtda

-cheksizlikda

-haqiqiy

-mavhum

45. Teng og'ishga tegishli interferensiyaga ..... lokallahsgan interferensiya ham deyiladi.

+ cheksizlikda

- sirtda

-haqiqiy

-mavhum

46. Frenel difraksiyasida difraksion maksimum yoki minimum zonalar sonining .....

bog'liq

+ toq yoki juftligiga

- toqligiga

- juftligiga

-zonalar soniga bog'liq emas

47. Difraksion panjaralar ..... panjaralar bo'lishi mumkin.  
+qaytaruvchi va o'tkazuvchi  
- qaytaruvchi  
- o'tkazuvchi  
-faqat o'tkazuvchi
48. 1912 yilda Laue tomonidan ..... nurlarining ( $\lambda=10^{-2} \text{--} 10^2 \text{ \AA}$ ) difraksiyasi kuzatilgan.  
+Rentgen  
-Ko'rindigan  
-Infracizil  
-Gamma
49. Uyg'ongan holatdagi atomlarning yashash davri ..... s ga teng.  
 $+10^{-8}$   
 $-10^{-10}$   
 $-10^{-12}$   
 $-10^{-4}$
50. Nurlanishning necha turi mavjud.  
+ikki  
-bir  
-uch  
-to'rt
51. Yutilish koeffisiyenti manfiy ( $\alpha_0 < 0$ ) bo'lgan muhitlarni hosil qilish mumkinligini qaysi olim ko'rsatgan.  
+Fabrikant  
-Plank  
-Yung  
-Fuko
52. Metastabil holatdagi atomlarning yashash davri ..... s ga teng.  
 $+10^{-3}$   
 $-10^{-10}$   
 $-10^{-12}$   
 $-10^{-6}$
53. 1960 yilda optikaviy diapazonda ishlovchi asbob qaysi olim tomonidan yaratildi.  
+ Meynman  
-Basov  
-Tauns  
-Proxorov
54. Ionlarni uyg'ongan holatga keltirish uchun zarur bo'lgan energiyaga ..... energiyasi deyiladi.  
+ damlash  
-bog'lanish  
-yutilish  
-nurlanish
55. Yoqtut lazeridagi yoqutning tarkibi ..... dan iborat.  
+ alyuminiy oksidi ( $\text{Al}_2\text{O}_3$ )  
-xrom oksidi ( $\text{Cr}_2\text{O}_3$ )  
-xrom ionlari  
- alyuminiy ionlari
56. Birinchi gazli geliy-neon lazeri ..... yilda Javan, Bennet va Erriot tomonidan yaratildi.  
+1960  
-1939  
-1970  
-1965

57. Yoqt lazeri ..... rejimda ishlaydi.  
+impulsli  
-uzluksiz  
-impulsli va uzluksiz  
-to'g'ri javob berilmagan
58. Yorug'likning kombinasion sochilishi mumtoz nazariyasini ..... lar yaratdilar.  
+Landsberg va Mandelshtam  
-Landsberg va Tindal  
- Mandelshtam va Reley  
-Tindal va Reley
59. Haroratning oshishi bilan ..... yo'ldoshlar intensivlig tez oshadi.  
+ binafsha  
- qizil  
- o'zgarmaqdi  
-haroratga bog'liq emas
60. Issiqlik nurlanish qonunlariga asoslanib yuqori haroratlarni o'lchash usullari ..... deyiladi.  
+ optik pirometriya  
- saxarimetriya  
-lyuminessensiya  
- elektrolyuminessensiya
61. O'zaro ketma-ket joylashgan linzalar sistemasining optik kuchi (oralaridagi masofa hisobga olinmagan holda):  

$$D = D_1 + D_2 + \dots + D_n$$
  
-D=D<sub>1</sub>+D<sub>2</sub>-D<sub>3</sub>+....-D<sub>n</sub>  
-D=D<sub>1</sub>-D<sub>2</sub>+D<sub>3</sub>+....+D<sub>n</sub>  
-D=D<sub>1</sub>-D<sub>2</sub>-D<sub>3</sub>-....-D<sub>n</sub>
62. Yorug'lik kvanti (fotoni) ning energiyasi quydagи formula bilan aniqlanadi:  
+E=hv  
--  $\varepsilon = \hbar\lambda = h\nu$   
-  $\varepsilon = \hbar\lambda$   
-  $\varepsilon = \hbar\lambda = h\theta$
63. Agar nur sochayotgan jism absolyut qora bo'lmasa, u holda Stefan-Boltsman formulasi bilan aniqlanadi:  
+  $R_e = k\sigma T^4$   
-  $R_e = kT^4$   
-  $R_e = k\sigma T$   
-  $R_e = \sigma T^4$
64.  $D = \frac{d\varphi}{d\lambda}$  kattalikka difraksion panjaraning ..... dispersiyasi deb ataladi.  
+ burchakli  
-chiziqli  
-og'ish  
-sinish
65.  $\frac{\lambda}{\Delta\lambda} = kN$  kattalikka difraksion panjaraning ..... deyiladi.  
+ ajrata olish qobiliyati  
- burchakli dispersiyasi  
- chiziqli dispersiyasi  
- chiziqli kattalashtirishi

66. Absolyut qora jismning sirt birligidan 1 sekundda nurlanadigan energiya yani absolyut qora jismning energetik Yorqinligi ..... formulasi bilan aniqlanadi:

+ Stefan-Boltsman

- Vin

- Plank

- Vin va Stefan-Boltsman

67. Tashqi fotoeffektni vujudga keltiruvchi foton energiyasi bilan uchib chiqayotgan elektronlarning maksimal kinentik energiyasi o`rtasidagi bog`lanish ..... formulasi bilan aniqlanadi:

+ Eynshteyn

- Stefan-Boltsman

- Vin

- Plank

68. Nuyutonning Yorug' halqalari radiuslari (o'tuvchi Yorug'likda)

$$+ r_k = \sqrt{kR\lambda}$$

$$- r_k = 1/\sqrt{kR\lambda}$$

$$- r_k = \sqrt{(2k-1)R \frac{\lambda}{2}}$$

$$- r_k = 1/\sqrt{(2k-1)R \frac{\lambda}{2}}$$

69. Yassi-parallel plastinkalardagi (o'tuvchi Yorug'likda) Yorug'likning kuchayishi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$+ 2hn \cos r = 2k \frac{\lambda}{2}$$

$$- hn \cos r = k \frac{\lambda}{2}$$

$$- 2hn \cos r = 2 \frac{\lambda}{2}$$

$$- 2n \cos r = 2k \frac{\lambda}{2}$$

70. Ekrandagi ikki kogerent Yorug'lik manbalariga parallel joylashgan interferensiya yo'llari o`rtasidagi masofa

$$+ \Delta y = \frac{L}{d} \lambda$$

$$- \Delta y = \frac{1}{d} \lambda$$

$$- \Delta y = \frac{L}{d} \delta$$

$$- \Delta y = \frac{L}{\mu} \lambda$$

71. Bitta qilib qo'shilgan ikki yupqa linzaning optik kuchi:

+ D=D<sub>1</sub>+D<sub>2</sub>

- D=D<sub>1</sub>/D<sub>2</sub>

- D=D<sub>1</sub>-D<sub>2</sub>

- D=D<sub>1</sub><D<sub>2</sub>

72. Lupaning kattalashtirishi ..... ga teng.

$$+ k = \frac{L}{F}$$

$$- k = \frac{L}{\lambda}$$

$$- k = \frac{\lambda}{F}$$

$$- k = L/\delta$$

73. Kompton doimiysining son qiymati ..... ga teng.

+  $2,41 \cdot 10^{-12}$  m

-  $2,41 \cdot 10^{-10}$  m

-  $2,41 \cdot 10^{-12}$  sm

-  $2,41 \cdot 10^{-12}$  mm

74. Kompton effekti deb, nurlanish (rentgen) moddaning erkin elektronidan sochilishi natijasida to'qin uzunligining ..... aytildi.

+ ortishiga

- kamayishiga

- o'zgarmasligiga

- doimiy qolishiga

75. Fotoqarshilik ..... asosan ishlaydigan asbobdir.

+ ichki fotoeffektga

- tashqi fotoeffektga

-sinish qonuniga

-Malyus qonuniga

76. Qarshiligi unga tushayotgan Yorug'lik intensivligiga bog'liq bo'lgan yarim o'tkazgichli qurilmaga ..... deyiladi.

+fotoqarshilik

\_ fotogalvanik elementlar

-doid

-triod

77. Fotoeffekt hodisasiga asoslanib ishlovchi qurilmalarni korsating.

+fotoelement, fotoqarshilik

-nurtola, fotometr

-fotometr, fotoelement

-fotoelementm nurtola

78. Fotoelementning voltamper xarakteristikasini olish jarayonida anod bilan katod orasidagi potensial oshishiga qaramasdan anod tokining kattaligi o'zgarmas qolgan tok miqdoriga .....deyiladi.

+ to'yinuvchi tok qiymati

- to'yinuvchi kuchlanish qiymati

- to'yinuvchi kuchlanish va tok qiymati

- to'yinuvchi quvvat qiymati

79. Anodda vujudga keladigan to'inish toki qiymati .....to'g'ri proporsional bo'ladi.

+ Yorug'lik oqimiga

-tok kuchiga

-tok quvvatiga

-kuchlanishga

80. ....ko'rsatdiki, Yorug'likning sochilishiga asosiy sabab havodagi chang zarrachalari emas, balki havo molekulalarining o'zidir.

+ Reley

-Raman

-Landsberg

-Maksvell

81. Spektral asbob deb qanday asbobga aytildi?

+Spektral asbob deb-optik diapazondagi elektromagnit to'lqinlarni chastota yoki to'lqin uzunligi bo'yicha taqsimlovchi asbobga aytildi.

-Spektral asbob deb - ultrabinafsha oblastdagi elektromagnit to'l-qinlarni chastota bo'yicha taqsimlovchi asbobga aytildi.

-Spektral asbob deb - ko'zga ko'rinvchi nurlarni to'lqin uzunligi bo'yi-cha taqsimlovchi asbobga aytildi.

-Spektral asbob deb - uzoq infraqizil oblastdagi elektromagnit tul-qinlarni faqat to'lqin uzunligi bo'yicha taqsimlovchi asbobga aytildi.

82. Difraksiyon panjara formulasini ko'rsating.

$$+ m\lambda = d(\sin \alpha + \sin \beta)$$

$$- mv = d(\sin \alpha + \cos \beta)$$

$$- m\lambda = d(\sin \alpha + \cos \beta)$$

$$- m\lambda = d(\cos \alpha + \sin \beta)$$

83. Difraksiyon panjaralari spektral asboblar uchun burchakli dispersiya formulasini k'yrsating.

$$+ D_Q = \frac{dQ}{d\lambda} = \frac{m}{d \cos \beta}$$

$$- D_o = \frac{dQ}{d\lambda} = \frac{m}{d \sin \alpha}$$

$$- D_Q = \frac{dQ}{a\lambda}$$

$$- D_Q = \frac{d\lambda}{dQ}$$

84. Burchakli dispersiya ta'rifini bering.

+To'lqin uzunligi o'zgarishiga mos keluvchi burchak o'zgarishining nisbatiga aytildi.

-To'lqin uzunligi o'zgarishi bilan spektrlar orasidagi masofaning o'zgarishiga aytildi.

$$- \frac{d\lambda}{dI} \text{ kattalikka aytildi.}$$

-To'lqin uzunligining spektrlar orasidagi masofaning nisbatiga teng bo'lgan kattalikka aytildi.

85. Chiziqli va burchakli dispersiyalar orasidagi bog'lanishni ifodalaydigan tenglikni ko'rsating.

$$+ D_l = fD_\theta$$

$$- D_\theta = fD_l$$

$$- D_l = \frac{D_\theta}{f}$$

$$- D_\theta = mD_l$$

86. Quyidagi birliliklardan qaysi biri chiziqli dispersiya birligini ifodalaydi.

$$+ mm/A^0$$

$$- A^0/mm$$

$$- 1/A^0$$

$$- m^2/A^0$$

87. Spektral asbobning ajrata olish qobiliyati ifodasini ko'rsating.

$$+ R = \frac{\lambda}{d\lambda}$$

$$\begin{aligned}-R &= \frac{d\lambda}{\lambda} \\ -R &= \lambda \cdot d\lambda \\ -R &= \frac{1}{\lambda d\lambda}\end{aligned}$$

88. Spektral asbobning kattalashtirishi deganda nimani tushunasiz.

- +Tasvir o'lchamining buyum o'lchami nisbatiga teng bo'lgan kattalik tushuniladi.
- Buyum o'lchamining tasvir o'lchamiga nisbatiga teng bo'lgan kattalik tushuniladi.
- Spektral asbobning kattalashtirishi deganda manbadan chiqayotgan Yorug'likning intensivligi tushuniladi.

$$-K = \frac{h}{H} \text{ kattalik tushuniladi. (h-buyumning o'lchami, N-tasvirning o'lchami)}$$

89. Spektral asboblarning ajrata olish qobiliyatini birinchi bo'lib kim o'rgangan.

- +Reley
- Fraunhofer
- Devid
- Nyuton

90. Difraksion panjara nazariyasi kim tomonidan yaratilgan.

- +Fraunhofer
- Maks Plank
- Maykelson
- Reley

91. Difrakson panjaraning ajrata olish qobiliyatini oshirish uchun nima qilish kerak.

- +Birlik uzunlikka to'g'ri keluvchi shtrixlar sonini ko'paytirish kerak
- Birlik uzunlik to'g'ri keluvchi shtrixlar sonini kamaytirish kerak
- Difraksion panjaraning burchakli dispersiyasini oshirish kerak
- Difraksion panjaraning burchakli dispersiyasini kamaytirish kerak

92. Difraksion panjaraning ajrata olish qobiliyatini difraksion panjaraning shtrixlar soni bilan bog'langan holda yozilgan ifodasini ko'rsating.

$$\begin{aligned}+R &= \frac{\lambda}{d\lambda} = K \cdot N \\ -R &= \frac{\lambda}{d\lambda} \\ -R &= \frac{d\lambda}{\lambda} = K \cdot N \\ -R &= \frac{\lambda}{d\lambda} = \frac{K}{N}\end{aligned}$$

93. Ko'zga ko'rinvchi nurlar diapazoni qaysi javobda to'g'ri kelti-tilgan

- +3700+7000 A<sup>0</sup>
- 100+800 A<sup>0</sup>
- 8000+14000 A<sup>0</sup>
- 2000+3400 A<sup>0</sup>

94. Tulqin uzunligi ta'rifi qaysi javobda ketirilgan.

- + Bir marta to'liq tebranishda bosib o'tilgan yo'l
- 1 sek. da bosib o'tilgan yo'l
- Butun harakati davomida bosib o'tilgan yo'l
- Ikki marta tebranishda bosib htilgan yu'l

95. Spektral asboblarda dispersiyalovchi element sifatida qaysi optik asboblar qo'llaniladi.

- +Prizmalar, difrakkion panjaralar va interferometrlar
- Ob'ektivlar, linzalar va okulyarlar

-Prizmalar, linzalar va interferometrlar  
-Faqat prizmalar

96.  $m\lambda = d(\sin \alpha + \sin \beta)$  - ifodadagi  $d$  - qanday kattalikni xarakter-laydi.

- +Difraksiyon panjara doimiysini
- Difraksiyon panjara uzunligini
- Difraksiyon panjaradagi tartib nomerini
- Difraksiyon panjaradagi tirqishning kengligini

97. Interferometr turlarini ko'rsating.

- +Ikki nurli va ko'p nurli interferometrlar
- Bir nurli va ikki nurli interferometrlar
- Uch nurli va ko'p nurli interferometrlar
- Interferometrlar faqat bir nurli binyaldi

98. Ikki nurli interferometrlarga qo'yidagilarning qaysilari kiradi.

- +Jamen va Maykelson interferometrlari
- Fabri-Pero va Maykelson interferometrlari
- Fabri-Pero va Jamen interferometrlari
- Fabri-Pero, Jamen va Maykelson interferometrlari

99. Yutilish spektrlarini o'rghanishda kimning qonunidan foydalilanildi

- +Buger-Beer Lambert
- Fraunhofer
- Fabri-Pero
- Maykelson

100. Yutilish koeffitsientining birligi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan

$$+sm^{-1}$$

$$-sm$$

$$-\frac{A^0}{MM}$$

$$-\frac{MM}{A^0}$$

### Fotonikaning zamonaviy masalalari fanidan glossariy.

#### -A-

**ABBE REFRAKTOMETRI**-suyuq va qattiq muhitlarning suyuqlikni sindirish ko'rsatkichini o'lhash asbobi.

**ABERRATSIYA**-lotincha *aberration-og'ish*, chetga chiqish-optik tizimning ideal holatdan og'ishi natijasida tasvirning buzilishi.

**ABSORBSIYAVIY SPEKTROSKOPIYA**-spektroskopiyaning ko'rinvuvchi, infraqizil va ultrabinafsha nurlanishning yutilish spektrini o'rGANUVCHI bo'limi.

**ADAPTIV OPTIKA**-o'zidan o'tuvchi Yorug'likning to'lqin fronti buzilishlarini o'zi tuzatish xususiyatiga ega bo'lgan optik tizim.

**AJRATA OLISH QOBILIYATI**-optik tizimning buyumning bir-biriga yaqin ikki nuqtasini ayrim-ayrim tasvirlay olish qobiliyatini tavsiflovchi kattalik; ajrata olish limitiga teskari kattalik.

**AJRATILISH CHEGARASI**-optik tizim buyumning ayrim-ayrim tasvirlab

beradigan ikki nuqtasi orasidagi eng kichik masofasi; burchak yoki chizig'iy o'lchovlarda ifodalananadi.

**APOXROMAT**-yunoncha *apo*-bu yerda kichrayishni bildiradigan old qo'shimcha va *chroma* – rang – optik tizimlarning sferaviy va sferoxromatik aberratsiyalari to'g'rilangandan so'ng qoldiq xromatik aberratsiya *axromat*dagidan kichik bo'ladigan obyektiv.

### -B-

**BIKO'ZGU**-nuqtaviy manbadan chiqqan Yorug'lik  $180^0$  dan kichikroq burchak ostida joylashgan ikkita ko'zgudan qaytib, Yorug'likning kogerent dastasini hosil qiluvchi asbob.

**BILINZA**-nuqtaviy manbadan chiqqan Yorug'likning bitta yig'uvchi linzani kesishi natijasida bir-biridan biroz ajratilgan ikkita yarim linza Yordamida kogerent Yorug'lik dastasi hosil qiluvchi asbob.

**BINAFSHA SILJISH**-nurlanish manbai va nurlanish kuzatuvchisining o'zaro yaqinlashuvi tufayli etalon spektrga nisbatan manbaning elektromagnetik nurlanish spektrida chiziqlar to'lqin uzunliklarining qisqarishi.

**BIO QONUNI** -Tabiiy optik faollikka ega bo'lgan nokrall moddalar (suyuqlik yoki nofaol erituvchidagidi eritma) qatlamanidan o'tuvchi chizig'iy qutblangan Yorug'likning qutblanish tekisligi  $\phi$  aylanish burchagini aniqlash qoidasi.

**BIPRIZMA**-nuqtaviy manbadan chiqqan Yorug'likning kichik sindirish burchakli,

**BUTUN TO'LQIN PLASTINKA**-qo'sh sindiruvchi kristalldan uning optik o'qiga parallel, qalinligini esa oddiy va nooddiy nurlar optik yo'l farqi to'lqin uzunlikka karra bo'ladigan qilib kesib olingan plastinka.

### -D-



**DASTA**-Yorug'likni qutblastash uchun ishlataladigan shaffof yassi plastinkalar to'plami; 2-Yorug'lik yoki nur to'plami.


**DIAFRAGMA**-yunoncha *diaphragma*-to'siq- 1)biror fizik tizimning qismlarini ajratib turuvchi to'siq; 2) optik tizimlarda Yorug'lik nurlarining ko'ndalang kesimini cheklovchi noshaffof to'siq; 3) zarYadlangan zarralar dastasi kesimini cheklovchi elektr o'tkazuvchi plastinkadagi tirqish.

**DINAMIK GOLOGRAFIYA**-to'lqinlarni yozish jarayonida ularning kogerentligi o'zgarishi qaraladigan golografiya sohasi.

**DIOPTRIYA (dp, D)**- linza yoki sferik ko'zguning optik kuchi birligi; 1 dioptriya bosh fokus masofasi 1 m bo'lgan linza yoki sferik ko'zguning optik kuchiga teng

**DISPERSIYA**- lot *dispersio*-sochilish-tarkibiy qismlarga ajralish





**DISPERSIYA PRIZMASI-** tekshiriladigan nurlanish uchun shaffof moddadidan yasalgan, elektromagnetik nurlanishni dispersiyalovchi prizma

**FIZIKAVIY OPTIKA**-Yorug'lik va Yorug'lik hodisalarining tabiatini o'rjanuvchi optika bo'limi.

**FLUKTUATSIYA**-lotincha *fluctuatio-tebranish*-fizik kattalik qiymatining o'z o'rtacha qiymatidan tasodifiy chetlanishlari.

**FLUORESSENSIYA**-dastlabki flyuorit minerali va lotincha *secent-zaif* ta'sirni bildiruvchi suffiks-Yorug'lanishni o'rjanuvchi ta'sir to'xtaganidan so'ng tezda so'nuvchi lyuminessensiya.

**FOKUSLASH**-sferik yoki silindrik shakldagi yig'uvchi to'lqin frontlari yaratish.

**FOSFORESSSENSIYA**-uyg'otuvchi ta'sir to'xtaganidan keyin ham nurlanishni uzoq vaqt saqlab turuvchi lyuminessensiya.

**FOSFOROSKOP**-fosforessensiya jadalligining davomiyligini va vaqtga bog'lanishini aniqlash uchun ishlatiluvchi asbob.

**FOTOAKUSTIK HODISALAR**-optik nurlarning ta'sirida muhitlarda tovush (akustik) to'lqinlarning yuzaga kelishi.


**FOTOGRAFIYA**-fotosezgir materiallarda tasvir hosil qilish hamda fizik va boshqa jarayonlarda nurlanishlarni qayd qilish usullari.

**FOTOLYUMINESSENSIYA**-Yorug'lik ta'sirida yuzaga keluvchi lyuminessensiya.

**FOTOMETR**-yunoncha *photos-Yorug'lik* va *metreo-o'lchayman*-Yorug'lik maydonini tavsiflovchi kattaliklarni o'lhash asbobi.

**FOTOMETRIYA**-optik nurlanishning chiqishi, tarqalishi va modda bilan o'zaro ta'sirlashishida uning energiya tavsiflari qaraladigan optika bo'limi.

**GOLOGRAFIYA**-yunoncha *holos-barcha*, to'liq va *grapho*-yozaman-to'lqinlarning interferensiyasi asosida buyumlarning hajmiy tasvirini olish usuli.




## -I-

**IDEAL OPTIK TIZIM**-buyumlar fazosida tekislikning har bir nuqtasini tasvir fazosidagi tekislik nuqtasi tarzida tasvirlovchi optik tizim.

**IKKILAMCHI NURLANISH**-tushayotgan elektromagnit nurlanish ta'sirida dipol elektrik momentlari majburiy tebranishlarni bajarayotgan atomlar yoki molekulalar chiqadigan elektromagnit nurlanish.

**IKKI FOTONLI NURLANISH**-nurlanuvchi tizimning bitta kvant o‘tishida ikki fotonning nurlanish jarayoni.



### IMPULS

**GOLOGRAFIYA**-jadal lazer impulslar vositasida gologrammalar yozib olish.

**INTERFERENSIYA YO‘LLARI**-Yorug’lik interferensiyasida kuzatiladigan Yorug’ va qorong’u yo‘llar tizimi.

**INTERFERENSIYA MANZARASI**-kogerent Yorug’lik dastalarining qo‘shilishi natijasida hosil bo‘luvchi va past jadallikli Yorug’lik sohalarining muntazam navbatlashuvi

**INTERFERENSIYA TARTIBI** - muayyan nuqgada interferensiyalashuvchi nurlar yo‘llari farqining shu nurlarniig vakuumdagi to‘lqin uzunligiga nisbati

**INTERFEROGRAMMA** -tekshirilayotgan elektrromagnitik nurlanish jadalligi modulyatsiyasining qaydi; interferometrda nuring yo‘l farqini tekis o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi

**INTERFEROMETR**-to‘lqinlarning interferensiyasi hodisasi asosida ishlaydigan o‘lchash asbobi

**INFRAQIZIL NURLANISH** –to‘lqin uzunliklari 1 2mm+0,74mkm oraliqda bo‘lgan, oddiy ko‘zga ko‘rinmaydigan elektrromagnitik nurlanish


**INFRAQIZIL SPEKTROSKOPIYA** - spektr infraqizil sohasidagi spektrning chiqishini, yutilishini va sochilishini hosil qilishni, tadqiq qilshi va qo‘llashni o‘z ichiga oluvchi optik spektroskopiya bo‘limi

**ISSIQ LYUMINESSENSIYA**-uyg’otilgan elektron holatdagi kvant tizim (molekula, qattiq jism) atrof muhit bilan issiqlik muvozanati o‘rnatishi jarayonida (odatdagi lyuminessensiya tizimning atrof muhit bilan issiqlik muvozanati sharoitida yuz beradi) Yorug’lik chiqishi.


**ICHKI TO‘LQINLAR**-zichligi chuqurlik ortishi bilan o‘sса boradigan qatlanmagan suyuqlik (gaz)dagi to‘lqin harakatlar ko‘rinishi.

### -K-

**KOMBINATSION SOCHILISH**– tushayotgan nur bilan modda molekulalarining tebranish chastotalari kombinatsiyasi bo‘lib namoyon bo‘ladigan sochilish.[3]



*Qizil yo‘ldoshlar  
(stoks chiziqlari)*



*Binafsha ye  
(antistoks c)*

-L-

**LAZER**-inglizcha *laser-Light Amplification by Stimulated Emission of Radiation-“majburiy nurlanish tufayli Yorug’likning kuchayishi”* so‘zlarining bosh harflaridan-optik rezonatorda joylashgan faol muhitning majbiriy nurlanishi natijasida kogerent elektromagnetik to‘lqinlar chiqaruvchi kvant generator.

**LAZER SPEKTROSKOPIYA**-lazer nurlanish Yordamida olingan Yorug’likni chiqarish, yutilish va sochilish spektrlarini o‘rganuvchi spektroskopiya bo‘limi.

**MUVOZANAT NURLANISH**-termodinamik muvozanatda bo‘lgan fizik tizimdan chiqariluvchi issiqlik nurlanish.

-N-

**NIKOL PRIZMASI**-island shpatidan yasalgan, ikki qismdan tashkil topgan, yassi qutblangan Yorug’lik hosil qilishda qo‘llaniladigan prizma.

**NISBIY KO‘RINUVCHANLIK**-ko‘zning nisbiy spektral sezgirligi.

**NIT-(nt)**-lotinchcha *niteo-yarqirayman*-kvadrat metrga to‘g’ri keladigan qandil; ravshanlik birligining qadimiyl nomi (q. *Kandela*).

**NOBIRJINS MUHIT**-muayyan fizik xossalari koordinatalarga bog’liq bo‘lgan muhit.